

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIIRLIGI

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**“KINO, TELEVIDENIE VA RADIO SAN'ATI” FAKULTETI
“MUSIQALI, DRAMATIK TEATR VA KINO SAN'ATI”**

KAFEDRASI

VA

“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA”

KAFEDRASI

“5111000 - Kasb ta'lim (Aktyorlik san'ati) yo'nalishi”

DAK Raisi: Pedagogika fanlari doktor professor

Xodjayev Bekzod Xudoyberdiyevich

Kafedra mudiri: Pedagogika fanlari nomzodi

M.L. Abdujabborova

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “Ostrovskiyning “Sepsiz qiz” pyesasida xarakterlar tahlili”

Bajardi: 4-kurs talabasi Abdullayeva Dilfuzaxon Muhammadsoli qizi

Ilmiy rahbar: Hamrayeva Mohigul Xushvaqtoyna

**Mazkur bitiruv malakaviy ishi kafedraning 2018 – yildagi “__” sonli
yeg'ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan**

Toshkent - 2018

Mundarija

Kirish	
I BoB .Ostrovskiyning ijod yo'li	
1.1 Xarakter haqida tushuncha	
1.2 Ostrovskiyning hayot va ijod yo'li	
II BOB . Obrazlar taxlili va tasnifi.....	
2.1 Ostrovskiyning “Sepsiz qiz”asari haqida	
2.2 Asar qahramonlari obrazlari tasnifi va xarakterlar taxlili	
Xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar	

Kirish

Bugungi kunda respublikamizda san'atga va ayniqsa teatr san'atiga bo'lgan e'tibor juda yaqqol bilinmoqda. Yurtimizning birinchi prezidenti I. Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat, yengilmas kuch" asarida teatr arboblari oldidagi eng muhim vazifalarni belgilab bergan bo'lsa, bugun esa Sh. M. Mirziyoyev teatr san'atini rivojlantirish uchun, ijodkorlarni moddiy manfaatdorligini yanada oshirish, ularni ijtimoiy himoyasini mustakamlash, uchun bir qator qaror va farmonlar berdilarki, bu albatta sizni bizdan yanada ilhom bilan ishlashni, o'z kasbimiz orqali yurtimiz rivojiga o'z hissamizni qo'shishimizni talab qiladi. Buning uchun biz o'qishimiz, izlanishimiz, jahon va o'zbek san'atkorlari tarixini yaxshi bilishimiz, teatr rivojiga hissa qo'shgan allomalar ijodini o'rganishimiz shartdir.

Jahon dramaturgiyasining diqqatga sazovor bo'lgan dramaturglari va ular ijod qilgan asarlari juda ko'p. Ana shunday dunyo miqiyosida turuvchi dramaturglardan biri Aleksandr Nikolayvich Ostrovskiydir. Uning o'ziga ham yoqqan asarlaridan biri esa "Sepsiz qiz" pyesasidir. Bu asarga u o'z umrining to'rt yilini bag'ishladi, 1874 – 78 yillarda bu durdona asar dunyoga keldi. Lekin, afsuslar bo'lsinki asar dramaturg hayotlik davrida juda ko'p to'sqinlik va qarshiliklarga uchradi. Faqat dramaturgning vafotidan so'nggina pyesa o'zining haqiqiy bahosini oldi, dovrig' taratdi.

Asarning bosh g'oyasi sanalmish, bu dunyoni faqat pul boshqarishi, pul oldida insonning qadr – qimmatini hech narsa emasligi, pul hayotni harakatga keltiruvchi amaliy kuch ekanligi, puldorlar boshqalarni taqdirlarini o'zlaricha hal qilishi mumkin ekanligini oshkor aytilishi o'sha davrda ko'pchilik kiborlarga unchalik ma'qul bo'lmagan edi.

Ostrovskiy pyesani kech kuzda yozishni boshlaydi to'rt yil ijod jarayoni davom etib yana kuzda yakunini topadi. 1879 – yili uni chop etilishga ruxsat berilib "Отечественные записки" jurnalida bosilib chiqadi. Keyin Moskvada Maliy teatrida, Peterburgda Aleksandriysk teatrida asar sahnalashtiriladi va teatrdan ham asar muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Faqat 90 – yillarning ikkinchi yarmiga kelib asar o'z

qadrini Vera Komissarjevskiy ijro etgan Larisa Ogudalova obrazi barchani maftun etadi va tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ladi.

Pyesaning bosh qaxramoni Larisa Ogudalova rolini birinchi bor Maliy teatrida aktisa Glikeriya Fedotova ijro etgan. Paratovni esa Aleksandr Lenskiy ijro etadi. 10 – noyabr 1878 yil bu asarning tug'ilish kunidir. Shov – shuvlar rus sahnasini sevuvchi barcha muhlislar to'planadilar. Ana shu premyerada Fyodor Dostoyevskiy ham qatnashadi. Lekin, kutilgan omad Ostrovskiydan yuz o'giradi. Premyera juda zerikarli o'tadi.

Aleksandriysk teatrida esa birinchi bor bosh rolni Mariya Savina ijro etadi. “Новая время” gazetasining yozishga “Sepsiz qiz” tomoshabinda “katta tasurot” qoldiradi. Ammo ham muvaffaqiyat haqida haqida gapirishga erta deyiladi gazeta xabarida.

Oradan o'n yilo'tib 1896 yilning sentyabr oyida Aleksandriysk teatri qaytadan bu asarni sahnalashtirishga qo'l uradi. Larisa obrazini Vera Komissarjevskiy ijro etadi. Boshida tanqidchilar Komissarjevskaya ijrosini ham bir oz tanqid ostiga oladilar “ bir xil o'ynashyapti qoqinishlar ko'p” degan istexzolar paydo bo'ladi, lekin tomoshabin yangi talqin, yangi ijroni qabul qiladilar. Bu ijroda sepsiz qiz oshiqalar o'rtasidagi o'yinchoq emas ular ustida quruvchi shaxsga aylanadi.

Pyesa sekin asta rus teatri saxnalarini egallay boshlaydi. Bu asar ayni urush davrining qizg'in payti 1944 yili o'zbek sahnasida ham o'ziga xos jaranglaydi. Xamza nomidagi teatrdan Larisa rolini – Sora Eshonto'rayeva, Paratovni esa Olim Xo'jayev ijro etadi. O'zbek tomoshabinlari ham bu yili aktyor ijrosidagi rus qahramonlarini ko'zlarida yosh bilan qabul qiladilar. Larisa go'zallik, sadoqat va sevgining yaqqol timsolidir. U sevgilisining xiyonatini kechiradi, uni hech narsa talab qilmay sevadi. Paratov unga o'zining o'yinchog'idek muomala qiladi. Boshqalar bo'lsa unga yordamlarini taklif qilsalarda lekin, o'zlarini manfaatlari uchun uni bir bezak sifatida qabul qiladilar.

Larisa ularni afsuski juda kech anglab yetadi. Ularni aslida kimlar ekanliklarini kech tushunib yetadi. Paratov uni rad etgandan keyingina hamma narsa joyiga tushadi. Bu shafqatsiz haqiqat uning uchun fojeaviy xolatni yuzaga keltiradi. Larisa o'z istak – hohishlarini amalga oshirishini faqat Paratovda ko'radi. Uni boshqacha hayot vakili deb

biladi. Uning Karandishev bilan unashtirilishini xatto o'zini kamsitilgan xolat deb bo'ladi. Paratovga bo'lgan muhabbat uni ko'r qiladi va u aldanadi. Ostrovskiy o'z asari bilan yorqin va jo'shqin hayot bilan, muborak, ochofat va yovuz hayotni bir biriga qarama – qarshi qo'yadi va ularni to'qnashtirib va tuzini hayotni sevishga qadriga yetishiga undaydi.

I BOB. Ostrovskiyning ijod yo'li.

Xarakter haqida tushuncha

Dunyoni anglash, voqelikni tushunish va badiiy ifodalash obraz – xarakterlar yaratish orqali amalga oshiriladi. Badiiy asarning markazida hamma vaqt inson turadi. Insonning hayoti, mehnati, kurashi, his - tuyg'ulari, qarasglari, fikr mulohazalari asarning mazmunini shaklini, syujetini tashkil etadi. Qahramonga xos vaziyatlar ochib berilishi orqali biz asarning ma'lum talabga javob berishini aniqlaymiz. Sahna san'atida eng avvalo dramaturgiyada badiiy xarakter yaratishga juda katta ahamiyat beriladi. Xarakter yaratish asar markaziga qo'yiladi, chunki dramatik harakatni tashkil qilish barcha voqea – hodisalarni ishga soluvchi shaxsiyat xarakterning o'ziga namoyon bo'ladi.

Xarakter keng qamrovli atama bo'lib, o'z ichiga katta ma'noni oladi. Qahramon ham, obraz ham, personaj ham o'z mohiyati bilan xarakterga bog'lanadi. Dramaturgiyada xarakter insonning jamiyat bilan, xalq bilan, tabiat bilan, bog'liq holatda tutashib ketadi. Xarakter nima qilganini, qanday qilganini tasvirlash syujet va kompozitsiyani, mavzu va g'oyani, muammoni o'z ichiga oladi. Demak, axir xarakter deganimizda badiiy asar dramaning mavzusi va g'oyasi, mazmun va shakli syujeti va kompozitsiyasi ko'z oldimizda yaxlitligicha gavdalanadi.

Aktyor o'z roli ustida ishlash jarayonida obrazning xarakter va xarakterliligini aniqlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Aktyor xarakterustida ishni boshlashda muallifning qahramon to'g'risida bergan tavsifiga suyanadi.

“Haqiqiy obraz va xarakter yaratish uchun aktyorda iroda, aql va hislar bir bo'lib uyg'unlashmog'i kerak”, deydi K.S.Stanislvskiy.

Xarakter bu - qahramonning boshqalardan farq qiluvchi tomonlari, barcha xatti – harakatida namoyon bo'luvchi xislatlari, o'zining, boshqalarga bo'lgan munosabati va h.k. Biror narsaga nisbatan munosabat jarayonoda namoyon bo'luvchi individual xususiyatdir. “Xarakter” so'zi grek tilidan olingan bo'lib, “naqsh”, “alomat” ma'nolarini bildiradi, ya'ni shaxsni farqlovchi xususiyat belgilari tushuniladi.

Xarakter to'g'risida Arastu o'zining “Poetika” asarida shunday yozadi: “Birinchi va asosiysi: xarakterlar yaxshi bo'lishi kerak (bu yerda ijobiy xususiyatlarga

ega bo'lgan shaxslar ustida gap ketyapti), ikkinchidan xarakterlar o'ziga xos bo'lishi kerak, uchinchidan, xarakterlar (hayotiy), haqqoniy bo'lishi kerak, to'rtinchidan, xarakterlar izchil bo'lishi kerak”.

Har bir xarakter o'ziga xos va shaxsiydir. Shuning uchun muallif xarakter qidirishi kerak, o'ylash kerak, takrorlanmas chizgilarini yig'ishi zarur, ularni birlashtirib bir – biriga qovushtirib payvandlab, yorqin, takrorlanmaydigan xarakter yaratish kerak. U kutilmagan qiyofaga ega bo'lib ishonarli bo'lishi kerak. Buning uchun ijodkorning o'tkir ko'zi, teran aqli, ijodiy mahorati bo'lishi kerak. U mavjud standart qo'liplar va o'rnashib qolgan shtamp – jilvalarga jiddiy qarshi tura oladigan jasoratli bo'lishi zarur. Buning uchun ijodkorni bilim saviyasi baland, tafakkur qobilyati o'tkir, mantiqiy xulosa chiqarishga mohir bo'lishi talab qilinadi.

Xarakterlar o'zlarining ijtimoiy xususiyatlariga qarab ham turlicha bo'ladilar. Bular realistik xarakterlar, romantik xarakterlar, lirik xarakterlar, dramatik xarakterlar, fojiali xarakterlar, komik xarakterlar kiradi. Romantik obrazlar ham, faol, ilg'or obrazlarga bo'linadilar.

Aristotelning fikricha, san'atdagi ideallashtirish ham xarakterlarning haqqoniy bo'lishiga zid kelmasligi lozim. Ijobiy qahramonlar muallifning ssenariysida ko'targan go'yaviy – estetik qarashlarning amalga oshirishdagi personajlaridir.

Xarakter muallifning go'yaviy niyatlari asosida badiiy vositalar yordamida yaratiladi. Xarakterning hayotiyliigi, mazmunga boyliigi, estetik quvvati dramaning mohiyatini, saviyasini belgilab beradi. Xarakter ham, tip ham, personaj ham obraz bo'la olishi mumkin. Xarakterni belgilovchi muhim xususiyat bu inson, shaxsning individual o'ziga xosligidir.

Xarakterni yaratish uchun hayotdan aynan nusxa ko'chirilmaydi, balki u badiiy ravishda tadqiq etishning samaralari sifatida paydo bo'ladi. Xarakter o'zining yashash tarzi, kurashish usullari, ijtimoiy – ma'naviy qarashlari, fe'l – atvori, o'y – kechinmalari bilan ajralib turadi.

Xarakter shunday bo'lishi kerakki, tomoshabin osonlik bilan uning hayotiy realligiga to'la ishonsin. K.S.Stanislavskiy ta'kidlagandek: “Sen ham rolga boshqa ranglar bilan birga rang – barang tovlanuvchi jindek oq bo'yoqdan ham qo'shib qo'y.

Shunda contrast, rang – baranglik va haqiqat vujudga keladi. Shuning uchun ham yig'loqi kishini o'ynaganingda, uning quvnoq, tetik paytlarini top. Shunda, yana qayta yig'loqi holga qatganingda, zerikarli bo'lmaydi, balki ilgarigidan ham kuchliroq ta'sir etadi. Shundan bo'lsa kerakki, sendagi tinmas yig'loqlik, tish og'rig'idek jonga tegyapti. Shu sababli yaxshini o'ynaganda uning yomon jihatini, yomonni o'ynaganda uning yaxshi xislatini izla.”

Xarakterlilik – esa qahramonning tashqi xislatlarini, so'zlarni yorqin gapira olishi, professional, maishiy va shaxsiy o'ziga xosligidir.

Aktyor rolining ichki hayotini, ichki dunyosini faqat xatti – harakatlar yordamida yuzaga keltira oladi. Sahnada tasvir etilgan rolning xatti – harakatiga qarab, ular haqida fikr yuritish mumkin. Mana shu ichki tabiat bilan xulq – xususiyatlari rolning ichki xarakteri deb ataladi.

Rolning ichki xarakterini tasvirlab, ijro etishi uchun aktyor o'zini rol hayotida ko'ra bilmog'I lozim, boshqacha qilib aytganda, aktyor o'zini rolning berilgan shart – sharoitiga moslashtira olmog'i kerak. Shu bilan birga, rolning hayotini aktyor o'zining ichki dunyosi bilan ko'ra bilmog'I lozim. Demak, bu rol uchun zarur bo'lgan ichki xususiyatini, his – tuyg'ularini aktyor o'z qalbida tarbiyalab, o'stira keltira bilishi kerak.

Buning uchun dastavval aktyor rolning ichki xarakterini va uning ichki qalb o'zgachaligini yaxshi bilib, aniqlab olishi talab etiladi. Chunki rolning tashqi xatti – harakatiningpaydo bo'lishi – ichki xarakterga bog'liq. Rolning ichki xarakterini tomoshabinga ta'sirli yetkazishda aktyor rolning tashqi xarakterini ham chuqur o'ylab topishi zarur. Qizig'i shundaki, tashqi xarakterga taalluqli bo'lgan rolning yurishi, turishi, gavda harakatlari, qimirlashlari, qo'zg'alishlari, so'zlash manerasi va boshqa hokazolarni aniqlashning o'zi aktyorga ba'zida rolning ichki harakatini topishga yordam beradi, ba'zida rolning ichki harakatlarini aniqlash bilan uning tashqi harakatlari, aktyor ijodida, o'zidan – o'zi paydo bo'ladi.

Ma'lumki, hayotda bir xil odamlar bo'lmaydi, har bir kishining qiyofasida, tashqi ko'rinishida ham o'ziga xoslik mavjud. Har bir xarakter o'zining yashash tarsi, kurashish usullari, ma'naviy qarashlari, fe'l – atvori, fikrlashi bilan ajralib turadi.

Qahramonning eng xarakterli xususiyati shundan bilinadi-ki, agarda unda umuminsoniy fazilatlar chuqur individuallashtirilgan holda namoyon bo'lsa.

Hayotdagi insolar xakteri har xil bo'ladi. Samimiy, xushfe'l, saxiy, xushchaqchaq, ayrimlari esa jahldor, injiq, pishiq, xasis, janjalkash xususiyatlarga ega. Xarakter to'g'risida gap ketganda, unga asos, o'zak poydevor qilib olingan real shaxsni nazardan qochirib bo'lmaydi.

Rejissyor asarni sahnalashtirish jarayonida muallif yaratgan qiyofalarning turli – tumanligini, fe'l – atvorlarini ochishi, aktyor mahorati orqali namoyish qilishi lozim. Ma'lumki, fe'l – atvor tug'ma bo'lishi mumkin. Fe'l – atvor nasl – nasabga, avlod – ajdodga, irsiyatga ham bogliq. Xarakterni shakllanishida tashqi dunyoning ta'siri juda kuchli bo'ladi.

Rejissyor asarni tahlil qilar ekan, insonning psixologik holatini har bir qiyofaning asosini topishi kerak. Xarakter to'rt xil ko'rinishda ro'y beradi:

1. Melanxolik – (“melayna xole” – qora safro) sodda, hayotga qiziqishi sust, bo'shashgan, tepsa tebranmas. Kamsi'z kam hafsa, uyalchang, tortinchoq, yolg'izlikni yaxshi ko'radi. Muvaffaqiyatsizlikda o'zini yo'qotib qo'yadi, ko'p o'ylaydi, yeti o'lchab bir kesadi.

2. Sangvinik – (“sanvis” – qon) qiziqqon, jo'shqin, hayotga qiziqishi yuqori, jonli, ishbilarmon, yangilikni tez o'zlashtiradigan, shart – sharoitga tez moslashadigan, qiyinchilikni tez yengadigan, ishchan, chidamli, hozirjavob, topqir.

3. Xolerik – (“xole” – safro) harakatchan, tavakkalchi, qiziqqon, betoqat, qaysar, tashabbuskor, o'zini tutolmaydigan, shoshqaloq, kamchiliklarga chidolmaydigan, tez harakat qilib, ishni tez hal qiladigan, o'z imkoniyatlariga yuqori baho beradigan, kayfiyati tez o'zgaradigan, qiyinchiliklarni tez yengadigan.

4. Flegmatik – (“flegma” – zardob) sovuqqon, tabiatan to'qnashuvlarga bormaydigan, vazmin, o'zini bosib olgan, sabr – toqatli, bir ishni oxirigacha yetkazadi. Yangi shart – sharoitga qiyinchilik bilan joylashadi, tartibli.

Hayotning o'zidan, fantastik xayoldan, odamlar orasidagi hayotni kuzatishlardan, kinofilmlardan rolning xarakterini topish mumkin. Tasviriy san'at asarlaridan va shunga o'xshash har xil yangiliklardan izlab topsa bo'ladi. Ammo, materiallar qaysi va qanday

joylardantopilishidan qat'i nazar, yig'ilgan materiallar aktyorning o'z qalbidan uzoq bo'lmasligi shart, ya'ni rolning ichki va tashqi harakatini uyg'ota oladigan bo'lishi lozim.

Rolning tashqi xarakterini yoritish borasida N.Cherkazov shunday deydi: "Ba'zan aktyorning ahamiyatsiz bo'lib tuyulgan maishiy, kundalik hayotidagi buyumlar bilan bo'lgan munosabati orqali uning xarakterini belgilasa bo'ladi. Gugurt, pul, kitob, hamyon, qalam, qog'oz bilan qilgan muomalasiga qarab, kishining ayrim fazilatini bilib olishi mumkin. Bu narsalar aktyorga obrazni xarakterlash va ochib berishda yordam beradi".

Xarakterning tashqi ko'rinishi bo'yicha K.S.Stanislavskiy Fedotovning "Rubl" pyesasini sahnalashtirish jarayonini quyidagicha xotiralaydi: "...sartarosh shoshilib uning o'ng tomon mo'ylovini chapdagsidan balandroq yopishtirib qo'yibdi. Bunday grim tufayli qiyofa sorbet, yolg'onchi odam tusiga kirib qoladi. Men esa o'ng qoshimni chapdagsidan balandroq qilib bo'yab qo'ydim. Shundan keyin yuzim mutlaqo o'zgarib, tomoshabinlar oldiga g'irt yolg'onchi, firibgar, gapiga mutlaqo ishonib bo'lmaydigan shaxs namoyon bo'lib qoldi..."

Rolning tashqi harakatini yaratishda aktyorga kostyum, parik, prichyoska, rekvizit, butafor va shunga o'xshash boshqa sahnaviy komponentlar yordam beradi.

K.S.Stanislavskiy bu haqda "...Kattami – kichikmi, bundan qat'i nazar, hamma aktyorlar sahnada faqat obrazlar yaratishlari kerak. Ularning vazifasi o'zini tomoshabinga ko'rsatishgina emas, buning uchun ular obrazning kayfiyatiga kirishlari kerak. Bu kayfiyatga kirishning o'zi – xarakterli, tipik va hayotiy bo'lmog'I lozim", - deb ta'kidlagan edi.

Rolning ichki xakteri rolning oily maqsadidan, xatti – harakatidan paydo bo'adi. Buning uchun aktyor o'zini rol o'rniga qo'ya bilishi kerak. Ana shunda hissiy xotiralar yordamida sahnaviy kechinma, aktyor qalbida o'zidan – o'zi uyg'onadi.

Ostrovskiyning hayot va ijod yo'llari

Buyuk rus xalqining butun bashariyat olami uchun ilmu fan , madaniyat , san'at – adabiyot , sohasida yaratgan xazinalari hammaga ma'lum va mashhurdir . Bu fakt , rus xalqining porloq dahosiga yaqqol dalil va iftixor qilinishga loyiq sharafli haqiqatdir . Bu fakt , sovet ittifoqida yashovchi barcha qardosh xalqlar uchun ham boisi iftixordir . Sovet xalqlari va shu jumladan , o'zbek xalqi Rusiyaning madaniyat osmonida porlagan yulduzlarini hurmatlaydi va ularning so'nmas nurlaridan fayziyob bo'ladi .

Buyuk rus ijodkorlari , ayniqsa XIX asrda insoniyatning badiiy ganjinasiga ko'p qimmatbaho injular qo'sha oldilar . Rus adabiyoti jaxonda eng oliyjanob , vijdonli , hurriyatparvar , jasur , unyoning peshqadam va ahli vijdon kishilari doimo qutlab , hurmatlab keldilar . Rus klassik adabiyotida , jamiyatdagihar qanday zulmu jafoga pastlik va qabohatga , jaholat va sotqinlikka qarshi kurash ochib , kishilarni hayotga , ravshan va to'g'ri hayotga , olijanoblikka va haqiqatparvarlikka chaqirgan buyuk yozuvchilar qatorida , buyuk realist dramaturg Aleksandr Nikolayevich Ostrovskiyning o'rni va xizmati bag'oyat sharofatli va azizdir .

Ostrovskiyning hayoti tashqi voqealarga uncha boy emas . U , 1823 yil , 12 aprelda Moskva shahrida tug'ildi . Uning otasi – senat mahkamasining (hukumat sudining) ma'murlaridan . Nikolay Fedorovich , ilm va adabiyotning qadriga yetgan kishi bo'lib , katta xususiy kutubxonaga ega edi . Aleksandr bolalik chog'laridan mutolaaga katta ishtiyoq bilan kirishganini o'zining tarjimai xolida xotirlab : “ Juda kichikliklik chog'imlarimdayoq rus adabiyoti bilan oshna bo'ldimda va shuning ta'sirida , o'zimda yozuvchilikka mayillik sezdim ” , deydi . 1835 yilda Aleksandr Nikolayevich birinchi Moskva gimnaziyasiga kirib , 1840 yilda uni bitiradi . Gimnaziya u o'rtacha o'qib , ko'proq vaqtini badiiy adabiyotning mutolaasiga bergani uchun bitiruvchi 12 talabadan to'qqizinchisi hisoblangan .

O'rta ma'lumotini tamom qilgach , yosh Ostrovskiy , ehtimol , otasining kasbi egallash maqsadida , Moskva dorilfununining adliya (yuridik) fakultetiga kiradi . Bu davrda u adabiyot va teatrga yana ham ko'proq qiziqib , o'zidagi badiiy zavqni yuksaltiradi . 1843 yilda u o'z xohishi bilan dorilfunundan ketib , Insof sudiga mirza (

munshi) bo'ladi . Insof sudi (sovetkiy sud) deb atalgan mahkama , asosan ota – onalar bilan ularning bolalari o'rtasidagi molu mulk janjallarini ko'rishga mutasaddi edi . Ikki yildan keyin (1845) Ostrovskiy bu idorani tashlab Moskvaga tijorat (kommersiya) sudiga kotib bo'lib o'tadi . Sud boshliqlari Ostrovskiyning “ tajriba va saviyasini ko'zda tutib unga ... to'rt so'm oylik tayin qiladilar . Lekin bo'lajak dramaturgni bu sud mahkamalarida bo'lak narsa qiziqtirar edi , u ham bo'lsa o'z vazifasi tufayli , har xil shahar tabaqalarini, dvoryan, savdogar, burjuaziya, meshchan, chinovnik namoyandalarining xulqu atvorlarini, feodal , kapitalist unsurlarni o'z ko'zi bilan ko'rar va hayot sahnasida boy tajriba orttirar edi .

1851 yilda Ostrovskiy bu xizmatini tashlab tamoman adabiy – ijodiy ishga o'tadi . Zotan Aleksandr Nikolayevich o'zining suddagi xizmatidan ketmasidan ilgariroq , uning bir necha kichik komediyalari matbuotda nashr etilgan edi . Chunonchi , 1847 yilda (yanvarda) “ Qurbsiz qarzdor ” komediyasidan sahnalar ” bosiladi , keyincha , 1847 – 48 – 49 yillarda o'sha komediyaning qolgan sahnalari ham “ Shahar varaqasi ” da nashr etiladi . 1847 yilni Ostrovskiy o'z hayotida muhim bir burilish davri deb hisoblanar edi . Chunki birinchi asarlarini (yuqorida nomi aytilgan komediya va “ Oila manzarasi ” degan pyesasini) bir qancha mo'tabar adabiyotshunoslarga o'qib , ularning maqtoviga sazovor bo'lgan edi . Ayniqsa , 1847 yil 14 dekabrda adabiyot professori Shevirevning uyida bo'lgan o'qishdan keyin Ostrovskiy o'zining abadiy qobilyatiga qattiq ishonib qolgan edi . U o'zi , mazkur kunni ko'zda tutib deydiki : “ O'sha kundan e'tiboran men o'zimni rus yozuvchisi deb hisoblay boshladim va hech qanday shak – shubhasiz o'z iste'dodimga ishondim ” .

1856 yilda Ostrovskiy bir guruh adabiyotchilar bilan birgalikda adabiy – etnografik ekspeditsiyada ishtirok etib , Volga daryosining bo'ylariga sayohatga chiqadi . Bu sayohatga chiqadi . Bu sayohatdan foydalanib , u borib ko'rgan joylarining tarixiy o'tmishi haqida , xalqning urfi odatlari , jonli tili va hokazo to'g'risida ko'p mufassal materiallar to'playdi . Avtorning keying pesalaridagi syujet , tip, maqol, qochiriqlarni ishlashida bu materiallar katta yordam berdi.

Bundan keyin Ostrovskiy juda ajoyib bir g'ayrat va mehnat qilib o'nlarcha pesalar yaratdi va rusiya jamiyatining ilg'or doiralarida eng buyuk rus dramaturgi

sifatida tanildi. U umrining ko'p qismini Moskvaning Zamoskvorechie rayonida o'tkazib, muttasil ijod bilan shug'illandi. Moskvaning bu rayonida, o'sha davrda mayda savdogarlar, hunamandlar, meshchanlar, kichik amaldorlar istiqomat qili, dramaturg uchun juda maroqli bir tiplar galeyerasini tashkil etar edilar . Ammo u ikki marta uzoqroq safarga ham chiqqan edi. 1862 yilda u ikki sherigi bilan yevropa sayohatiga chiqib o'z xotirod daftarida va do'stlariga yozgan maktublarida o'z taassurotini mufassal bayon qilgandir.

Ostrovskiyning ikkinchi safari o'z akasi M.N.Ostrovskiy bilan birga Kavkazga bo'lgan sayohatidir. Yozuvchining akasi o'sha paytlarda davlat mulklari ministiri sifatida o'ziga qarashli idoralarni tekshirish niyati bilan kavkazga jo'naganida Aleksandr Nikolayevichni ham o'zi bilan birga olib brogan edi (1883).Tiflisdada (Tibilisida) gurji jamoatchiligi va aktyorlari mashhur dramaturg Ostrovskiyning qizg'in kutib olishlari uni shu qadar ta'sirlantirgan ediki, u Moskvaga qaytib kelgach, o'zining bir xatida: "Tiflis ahli meni shunday yaxshi kutib olganidan ilhomlanib, xalqqa munosib va sazovor bo'ladigan yangi bir pyesa yozdim", deydi, bu pesa uning eng yaxshi asarlaridan biri bo'lgan "Aybsiz aybdorlar" edi. Ostrovskiy muntazam ijodiy ishlari bilan bir qatorda jamoat ishlariga ham aktivqatnashib turar edi. Masalan, 1859 yilda u, Chernishevskiy, Nekrasov, Turgenev va boshqalar bilan birlikda, "Muxtoj adabiyotchilarga va olimlarga nafaqa uyushtirish" jamiyatini tuzadi. 1865 yilda u, Moskvada "artistik uyushma" ni ta'sis etdi. Yana uning tashabbusi bilan 1874 yilda Moskvada "Rus dramatik yozuvchilari va opera kompozitorlari jamiyati" tashkil etildi. 1860 – 80 yillar mobaynida Ostrovskiy rus teatrini ko'tarish, milliy repertuar yaratish masalalariga doir ko'p tashabbuslar qilib, katta va mufassal loyihalar tuzdi. Umrining so'ngi yillarida dramaturg keng omma uchun Moskvada chinakam milliy xalq teatri yaratish sohasida ko'p xarakat qildi. Ammo bu ajoyib tashabbusni tegishli tashkilotlar qo'llamagani uchun adibning bu aziz tilagi beoqibat qoldi. 1886 yilda (1 yanvarda) uni Moskva taetrlarining repertuar qismigamudir qilib tayinladilar. Biroq, muttasil va zo'r ijodiy ishlar, uzoq yillar o'z pyesalarini sahnaga qo'ydirish uchun ssenzura bilan og'ir olishuvlar, mashhur dramaturga bo'lishiga qaramay, ko'p vaqtlar iqtisodiy – moddiy yetishmovchiliklar adibning sihatini buzdi. 1886 yil 14 iyunda Ostrovskiy vafot etdi.

Ostrovskiyning dramatik merosi juda katta bo'lib, ellikka yaqin original pyesalardan iboratdir. Bundan boshqa u Shekspirdan ("Qaysar qizning quyilishi"), Plaftdan ("Eshaklar haqida komediya"), Terensiydan ("Qaynona"), Italo – Frankodan ("Ulug' bankir"), Makiavilidan ("Mandragora"), Davadassidan ("Bayaderka", yana Servantesdan, Goldonidan, Kastelvekkiodan, Gotsidanva boshqalardan ko'p tarjimalar qilganki, bu faktning o'zi uning Yevropa dramaturgiyasini mukammal bilganini ko'rsatadi.

Ostrovskiy yozib qoldirgan asrlarning hammasiga xatto qisqacha annotatsiya berishning o'zi ham shu maqolaning imkoniyatidan chetga chiqadi. U o'zining o'lmas pesalarida to'ralarning, dvoryanlarning, savdogarlarning, kosib – savdogarlarning, san'atkorlarning, yangi yetilgan kapitalistik burjuaziyaning, meshchanlarning, intelligentlarning yaqqol va chuqur tipik obrazlarini klassik bir mukammallik va realistic bir haqqoniyat bilan yaratib, rus adabiyotida bag'oyat boy bir tiplar ko'rgazmasi qoldirib ketdi. U rus jamiyatining ichki yuzini ochib feodal – partiarxal hayotning, savdogar – boy guruhlarining jirkanch xulqlarini o'tkir zaharxanda bilan fosh qilib ochib tashladi. U Fonvizni("Nedorosl"), Griboyedovni ("Aqillilik balosi") va Gogolni ("Revizor") dramaturgik ananalarini davom ettirib, rus realistic va demokratk dramaturgiyasining ulug'vor va xashamatli imoratini bunyod qildi.

Yosh Ostrovskiy adabiyotida tanqidiy realism metodlarining vazifalarini aniqlab yozgan maqolasida (1850) "fosh qiluvchi adabiyot" dan xalq quruq va'zlar emas, balki turmush ustidan, jonli va nafis ifoda etilgan hukmni kutadi, zamonamizdagi qabohat va kamchiliklarni to'liq obrazlarga qo'yib berishni kutadi, deb yozganida, albatta o'zining yozuvchilik idealini bayon qilgandir. U haqiqatdan o'zining jodiy hayotida doimo bu shiorga, "fosh qiluvchi adabiyot" shiorlarida sodiq bo'lib qoldiki, bu narsa shybhasiz, rus adabiyotida Gogol maktabining ananalaridan kelib chiqar edi. Gogolni ananalarini ijodiy ravishda egallab olgach, Ostrovskiy o'z zamonasining eng o'tkir hayotiy masalalarini, turmushning eng xarakterli voqealarini o'zining asosiy aabiy temasi qilib oldi. Ma'lumki, 50 – yillardan boshlab Rusiyada yangi kapilistik munosabatlarning kuchayishi bilan sinfiy qarama – qarshiliklar ham o'tkirlashadi. Bu jarayon borib – borib 1861 yilning dehqon reformasida ifodlanadi. Bu esa Rusiya tarixida burilish davri

edi. “1861 yilning 19 fevrali krepostnoychilik davridan o’sib chiqayotgan yangi, burjua Rusiyaning boshlanishiga alomat edi” (Lenin asarlari, II nashr, XV jild, 143 – bet, “Dehqon reformasi” sarlafxali maqola). Shunday qilib, tarix sahnasiga faolroq chiqqan boshlagan rus burjuaziyasi o’zining sinfiy xususiyatlari bilan: pulparastlik, “Oqcha to’lish – jamg’arish” ideali, pul va oltinni ilohiylashtirish xislatlari bilan chiqadi. Bu sinf vakillari nazarida butun mavjudod va voqelik pul bilan o’lchanadi. Bu yerda insof, do’stlik, qarindoshlik, sevgi, ehtirom, xullasi kalom, barcha insoniy sifatlar barbod va poymol bo’ladi. Ostrovskiy burjuaziya temasini shu nuqtai nazardan daxshat bilan fosh va masxara qiladi (“Bankrot” yoki “Biz – ku xeshmiz – xisoblashamiz” pyesasi, 1850). Bu pyesa sahnaga qo’yilganda Moskva senzurasini va savdogarlar Ostrovskiyga qarshi kompaniya boshlab, uni tuxmatchilikda ayblashdi. Chunki, ularning aytishicha, jamiyatdagi eng “halol” va “mo’tabar” janoblar sahnaga o’g’ri va muttaham bo’lib chiqqan edilar. Bu komediyani sahnaga qo’yish man qilindi va uning nashr qilinishi siyosiy xato deb qilindi. Bu albatta tasodifiy emas edi. Chunki, buyuk rus revolyutsiyon – demokrati, mashhur tanqidchi Dobrolyubov aytganiday “Biz – ku xeshmiz – xisoblashamiz” komediyasining mohiyati ijtimoiy – siyosiy tuzumi, ijtimoiy sharoitni tanqid qilishdadir. Dobrolyubov ta’biri bilan aytganda, Ostrovskiy pyesalari “kishi xulqiga va umuman insonga hurmatni tomoshabinlarga talqin qiladi edi”.

1852 – 55 yillarda Ostrovskiy qisqa bir muddatga slavyanofillar ta’soroga berilib, jiddiy ikkilanishlarga duchoq bo’ldi. “Moskvityanin” jurnali atrofiga to’plangan yosh slavyanofillar, Rusiya kapitalistik yo’l bilan o’smay, o’ziga xos bosqichlar bilan va “slavyan xalqlarining ruhiy xislatlari” ga muvofiq qadimiy patriarxal tuzumni doimo muhofaza qilib qoladi, degan reaksiyon bir maslakka moyil edilar. Bu davrda yozilgan pyesalarga slavyanofillarning muxofizakorlik ideyalari ancha ta’sir qilgan. 52 – 55 – yillarda yozilgan pyesalar (“O’zga otini minma”, “Kambag’allik – ayb emas”, “Xohishing bilan yashama”) dagi obrazlar yuvosh taqdirga tan bergan ojiz kishilardir. Ammo shu bilan birga bu davrda Ostrovskiy tamomila slavyanofil bo’lib ketdi, deyish butunlay noto’g’ri bo’lar edi. Chunki, hatto bu pyesalarning o’zida ham, Mariya Andreyevna, Dunya va Lyubim Torsevlar o’zlarini ezib turgan sharoitdan norozi edilar, ular eski savdogar – patriarxal muxitni also ideallashtirmaydilar, balki u muhitga butun

qarshi chiqadilar. Lekin ular aktiv emas. Dobrolyubov, shu komediyalarda “Oddiy insonlarning” fojiasini ko’ra bildi va haqiqatdan ham oddiy tomoshabinga bu komediyalar juda yaqin va tushunarli edi. Ular Ostrovskiyning o’zlarining qadrdon dramaturglari deb qabul qildilar.

1855 – 56 yillarda Rusiyada siyosiy kurash faollashib, liberallar bilan revolyutsion – demokratlar o’rtasidagi prinsipial ziddiyatlar chuqurlasha va ayon bo’la boshlaydi. Ostrovskiy ham slavyanofillar qarashining tarixiy puchligini anglab, “Moskvityani” to’garagini tashlab ketadi. U, Nekrasov bilan tanishib, revolyutsion – demokratik yozuvchilari lageriga yaqinlashadi va ularning jurnali bo’lmish “Sovreminnik” da o’zining qator pyesalarini bostiradi. “Ovqatgacha uyqu” (1857), “Mijozlari chiqishmadi” (1858), “Do’stning ikkkita yangisidan bitta eskisi durust” (1860), “Kuzma Zaxarich - Suxoruk” (1862), “Og’ir ayyom” (1863), “Xazilkashlar” (1864) va “Hokim” (1865) pyesalari bu davrning mahsulidir.

Ostrovskiyning ijtimoiy – siyosiy qarashlari revolyutsion – demokratiya pozitsiyalariga yaqinlashgan sari uning dramatik ijodiyotidagi tanqidiy realism metodi ham shunchalik keskinlashadi va chuqurlasha boshlaydi. Bu davrda yozilgan birinchi asari “O’zgalar bazmida xumorlik” (1856) dayoq dramaturg slavyanofillik kayfiyatlarini yemirib, patriarxal hayotning vahshat va daxshatlarini, yovvoyi savdogarlar muhitidagi o’zboshimchalik, istebdod va hudbinlikning manfur ko’rinishlarini ochib tashlash bilan halol mehnat ahlini hurmat qilishni talqin etadi. (muallim Ivanov va uning qizi Liza obrazlari). Ilgarigi, ba’zi pyesalarda tanti va soddadil “savdogar” lar o’rniga endi boy savdogar Tit Titich, Bruskov singari qaysar va komik obrazlar uchray boshlaydi. Ma’lumki, o’z siyosiy dushmanlariga qarshi kurashda Lenin bu obrazdan foydalangan.

1857 – 59 yillarda Ostrovskiy savdogarlar tematikasi bilan cheklanmasdan, chinovniklar (to’ra va ma’murlar) hamda dvoryanlar hayotiga bag’ishlab “Serkim mansab”, “Mijozlari chiqishmadi”, “Asrandi qiz” kabi asarlar yozadiki, bularda avtor islohotdan ilgarigi Rusiyaning ijtimoiy qiyofasini berishga urinadi. “Serkim mansab” da rus buyrokrat doiralarining ichki basharasi favqulotda bir mahorat bilan ochib tashlangan. Pesadagi poraxo’rlik mavzui, Chernishevskiy ko’rsatib o’tganday, eski Rusiyaning butun ijtimoiy – axloqiy an’analari bilan chambarchas bog’langan. Bu

asardagi ijobiy qahramon ziyoli Jadov yaxshi xayollardan nariga o'tolmaydi va eski qabohatlarni (shular jumlasidan poraxo'rlikni) qonuniy va tabiiy bir narsa deb hisoblaganlar tomonidan mag'lub etiladi va serkirim biron amal so'ragani amakisi huzuriga boradi. Chunki bu xayolparastziyoli aktiv ijtimoiy kuchlarga suyanmaydi. O'zi aniq ijtimoiy programmaga ega bo'lgan chinakam inqilobchi emas. Zotan Ostrovskiy shunday obrazni yarata olmasdi ham. Chunki u o'zi revolyutsion demokrat emas edi. Dvoryan obrazlarini yaratar ekan, Ostrovskiy bularning tekinox'rligini tasvirlashda hech qanday badiiy ranglarni ayamaydi. "Asrandi qiz" pesasida boy, pomeschik xotin Ulanbekova shunday qaysar, noinsof, toshyurak dvoryanlar sinfining yaqqol na'munasidir. "Bu pesada, birinchi sahnadan to oxirgacha, ko'zimiz oldidaxaqiqiy turmush, bizning (pesadagi shaxslardan biri aytganday) sariqqina turmushimiz gavdalanadi", deb yozgan edi buyuk Dobrolyubov.

Taajjub emaski, bu pesa "zararli niyatlari" va dvoryanlar ustidan masxara qilgani" uchun xukumat tomonidan man qilingan edi.

Ostrovskiyning shox asari bo'lmish "Momaqaldiraq", (1860) haqiqatdan ham bu o'lmas dramaturgdagi realizmning choqqisidir. Bu asarda Katerinani daxshatli bir muhit bilan to'qnashuvi ajoyib bir mahorat bilan tasvirlangan. Avtor bu yerda, zulmga asoslangan jamiyat haqiqiy insoniy tuyg'ularga xilofdir, degan juda muhim xulosaga keladi. "Momaqaldiraq" Ostrovskiyning"eng hal qiluvchi asaridir, qaysarlik va sukut orasidagi o'zaro munosabatlar bu yerda eng fojiona natijalarga borib yetkazgan" (Dobrolyubov) . Shubxasizki, realist dramaturg o'z zamonasidagi qarama – qarshiliklarni chuqur mushohada qilib olganligi ucun katerinaning fojiasi chinakam ijtimoiy fojiaga aylanib ketgandir. Chunki bu go'zal qizning fojiona halokati "qorong'ulik saltanati" dagi manhus sharoitning lobid va muqarrar bir mevasiday ta'bir qilingandir. Oliyjanob Katerina ikki yuzlamachilik va aldoqchilikka chulg'anib ketgan muhitga bo'ysunishni istamaydi. Chunki u hurriyatparvar, sof va tugal bir xarakterdir. Shu xislatlar unga qahramonlik qiyofasini baxsh etadi. Bu qizdagi diniy axloq normalari undagi butunlik va olijanoblikka qusur yetkazmaydi. O'zining mashhur "Qorong'ulik saltanatida yorig'lik" degan maqolasida Dobrolyubov "Momaqaldiraq" pesasiga juda

yuksak baho berib, Katerina xarakterini “faqat Ostrovskiyning dramatik faoliyatidagina emas, balki bizning butun adabiyotimizda olg’a bir qadam”, deb tavsif etgan edi.

Ostrovskiyning dramatik ijodiyotida tarixiy mavzularda yozilgan dramalar alohida o’rin tutadi. Umuman, 19 – asr davomida tarixiy tematika rus adabiyotida g’oyat katta o’rin olib keldi. Dvoryan yozuvchilar rus tarixida o’z sinfining ulug’vorligini tasdiq qiladigan voqealar izladilar. Ayniqsa, 15 – 17 asrlarda Moskva Rusiyasida yuz bergan g’alayon davr yozuvchilarining diqqat - e’tiborini o’ziga jalb etdi.

Ostrovskiyda ham o’sha davr voqealariga bag’ishlab yozilgan bir seriya pesalar borki bularni “Volga bo’yidagi kechalar” nomi ostida birlashtirdi.

Chunki bu mavzuda pesalar yozish niyati Ostrovskiyda, yuqorida aytkanimizday, bir guruh adabiyotchilar bilan 1856 yilda Volgaga sayohat qilgan mahallarida tug’ilgan edi. Bu seriyaning birinchi pesasi bo’lmish “Kuzma Minin” 1862 yilda, “Soxta Dmitriy va Vasiliy Shuyskiy” bilan “Tushino” 1867 yilda, “Vasilisa Melenteva” 1868 yilda yozilgan.

Bu pesalardagi asosiy xususiyat, dvoryan yozuvchilarining bu mavzuda yozgan asarlaridan shu bilan ajraladiki, Ostrovskiy Vatan yo’lida kurashgan asosiy kuch deb mehnatkash xalqni olg’a suradi. Shuning uchun ham otashin vatanparvar Kuzma Minin xudbin va sotqin bayarlarga qarshi qilib qo’yilgan. Bu pesadagi demokratik qarashlar senzura ma’qul tushmagani uchun uni sahnaga qo’yishga ijozat berishmadi. Bu seriyaga kirgan boshqa pesalarida ham muallifning mehnatkash xalqqa bo’lgan samimiy rag’bat va muhabbati juda yaqqol aks ettirilgan. Ostrovskiyning nazarida vatanparvarlikning haqiqiy negizi xalqdir. 1860 yillarning oxirida Ostrovskiy tarixiy mavzulardan yana zamona tematikasiga qaytdi. Bunday keyin u, birin – ketin, “Donishmandning soda bo’lgani yaxshi” (1868), “Qizg’in yurak” (1869), “Ahmoq pullar” (1870), “O’rmon” (1871), “Bo’rilar va qo’ylar” (1875), “So’ngi qurbon” (1878), “Sepsiz qiz” (1879), “Talantlar va ixlosmandlar” (1882), “Aybsiz aybdorlar” (1884) degan pesalarni yaratdi. Bu asarlar Nekrasov va Saltikov Shchedrinlarning “Vatan tazkiralari” jurnalda nashr etilgan.

Ostrovskiy Aleksandr Nikolayevich 1823 yil 31 – martda (12 - aprelda) Moskvada dunyoga kelganini yuqorida ta’kidlab o’tgandik. Dastlab 1 – Moskva gimnaziyasida 1835 – yildan 1840 – yilgacha, keyin Moskva universitetining yuridik fakultetida 1840 – yildan 1843 – yilgacha o’qigan. Ammo o’qishni tugatmay, Moskvadagi vyukdon sudida 1843 – yildan 1845 – yilgacha va 1845 – yildan 1851 – yilgacha xizmat qiladi. Sud muassasalarida ishlash Ostrovskiyga yozilajak pyesalari uchun boy material bergan. Ostrovskiyning dastlabki “Kambag’al qarzdor” va “Oilaviy baxt manzarasi” komediyalari “Moskovskiy gorodskoy listok” (“Moskva shahri varaqasi”) gazetasida 1847 – yilda bosilgan. Ostrovskiyning “Kambag’al qarzdor” pesasi asosida yaratilgan “Qo’yingdan to’kilsa qo’njingga” komediyasi 1849 – yil Moskvadagi teatr jamoatchiligiga manzur bo’lgan. Ammo asar Nikolay I tomonidan taqiqlanib, muallif politsiya nazorati ostiga olingan. Ostrovskiy qalamiga mansub asarlar jami 47 ta bo’lib, ular “Ostrovskiy teatri” degan adabiy hodisani tashkil etgan.

Ostrovskiyning adabiy – estetik qarashlari V.G.Belinskiy asarlari ta’sirida shakillangan. 40 – yillarda yashagan boshqa rus yozuvchilari singari, Ostrovskiy ham san’atkor o’ziga zamondosh jamiyatning turli qismlarini maxsus o’rganib, zamondoshlar uchun xalq hayotining hanuzgachatasvir etilgan sohalarning kashf etishi lozim, deb hisoblagan. 40 – yillarda yashagan rus yozuvchilari ijodidagi ana shu tamoyil “fiziologik ocherk”da, ayniqsa, yorqin ko’ringan. Ostrovskiyning dastlabki pyesalari mazkur “fiziologik ocherk” uslubida yozigan.

Ostrovskiy ijodi 3 bosqichdan ibodat. Ijodining 1 – bosqichida dramaturg Rossiyadagi islohotlarga qadar bo’lgan hayotni tasvir etgan bo’lsa (“Oilaviy turmush”, 1847; “Qo’ningdan to’kilsa qo’njinga”, 1849; “Bechora kelin”, 1852; “Kambag’illikayb emas”, 1853 va boshqalar), 2 – bosqichida islohotdan keyingi rus jamiyati hayotini aks ettirgan (“Eski do’stiga nima yetsin”, 1860; “Kechikkan muhabbat”, 1873; “Balzaminovlar oilasi haqida trilogiya”, 1856 – 61; “Qutirgan pullar”, 1869; “Bo’rilar va qo’ylar”, 1875 va boshqalar). “Boy kelinlar”(1875) pyesasi bilan Ostrovskiy ijodining 3 – bosqichidagi g’amgin komediyalar turkumi boshlanadi. Dramaturg bu

davrda “Haqiqat yaxshi-ku, ammo baxt afzal” (1876), “Yurak tosh emas” (1877), “Sepsiz qiz” (1878), “Aybsiz aybdorlar” (1883) singari asarlarini yozgan.

Ostrovskiy pyesalari sovet davrida O'zbekiston teatrlarida o'zbek va rus tillarda namoyish etilgan. “Momaqaldiroq”, “Sepsiz qiz”, “Aybsiz aybdorlar”, “Kambag'allik ayb emas” singari qator pyesalari o'zbek tiliga tarjima etilib, uzoq, yillar davomida o'zbek sahnalarida ijro etildi.

II BOB. Obrazlar tahlili va tasnifi

Ostrovskiyning “Sepsiz qiz” asari haqida

1843 yildan 1851 – yillargacha Aleksandr Ostrovskiy Kineshemskiy uyezdida fahriy sudya lavozimida ishlaganini yuqorida ta’kidlab o’tdik. Ana shu ishi davomida juda ko’p jinoiy ishlarni ko’rib chiqishi asarlaridagi mavzularni topilishiga sabab bo’lgan. “Sepsiz qiz” pesasining syujeti ham o’sha uyezdga yuz bergan voqea asosida: o’sha uyezdga yashovchi Ivan Konovalovning o’z xotinini o’ldirib qo’yishi asarning yozilishiga sabab bo’lgan. Ostrovskiy “Sepsiz qiz” asari bilan bilan bir paytda boshqa bir qancha asarlarni ham yozgan. Va nihoyat 1878 – yilda pesani yozib tugatgan. Yangi pesa boshidanoq muvofaqiyatlarga boy bo’ldi. Senzuradan juda tez o’tadi. “Otechestvenoye zapiski” jurnalida chop etila boshlnadi. “Maliy” keyinchalik “Aleksandriysk” teatrlarida repetitsiyalari boshlanib ketadi. Ammo Moskva va Peterburgdagi premyeralar muvofaqiyatsizlikka uchraydi. Tanqidchilar bu spektakllarni qattiq tanqid ostiga oladilar. Faqat 1890 – yilda Ostrovskiyning o’limidan 10 yil keyingina muvofaqiyatli sahnalashtiriladi, va tomoshabinlar olqishiga sazovor bo’ladi. Bunda o’sha davrning mashxur aktrisasi Vera Komesarjevskayaning hizmatlari kattadir. Asarda quyidagi personajlar ishtirok etadi:

1. Xarita Ignatevna Ogudalova – o’rta yoshlardagi tul xotin, Larisa Dmitrevnevaning onasi
2. Larisa Dmitrevna Ogudalova – yosh atrofida ishqibozlari ko’p bo’lgan, lekin sepi yo’q qiz.
3. Mokiy Parmyonich Knurov – katta savdogar, yoshi o’tinqiragan, boy odam.
4. Vasiliy Danilich Vojevatov – Larisani yoshligidan biladigan, katta bir savdo firmasining namoyondalaridan bo’lgan yosh yigit.
5. Yuliy Kapitonich Karandishev – uncha boy bo’lmagan chinovnik.
6. Sergey Sergeich Paratov – kemasozlikda omadi yurishgan xo’jayinlardan biri. 30 yoshlardan o’tgan kishi.
7. Robinzon – ismi Arkadiy Schastivtsev bo’lgan viloyatda ishlovchi aktyor.

8. Gavriilo – klubdagi va bog’dagi qaxvaxonaga egalik qiluvchi kishi
9. Ivan – qaxvaxona hizmatkori.

Birinchi voqea

Voqea volga daryosi oldida joylashgan qaxfaxona atrofida bo’lib o’tadi. Bu yerda shaxar savdogarlari Knurov va Vojevatov suhbat qurib o’tirishibdi. Ularni gaplaridan bilish mumkinki, shaharga kema xo’jayini Paratov qaytyapti. Sergey Sergeyevich bir yil muqaddam Larisa Dmitrevna Ogudalova bilan xayirlashmasdan ham zudlik bilan Bryaximovadan ketib qolgan edi. “Hissiyotlari” jo’sh urgan Larisa sevgilisini orqasidan quvib yetmoq uchun chopadi, uni ikkinchi stansiyadan qaytarib olib kelishadi.

Larisani yoshligidan biladigan Vojevatovning gapiga qaraganda uning eng asosiy fojeasi sepsis qiz ekanligidadir. Qizning onasi Xarita Ignatevna qizi uchun mos kuyovni topish uchun doim eshigini ochiq saqlaydi. Biroq Paratov ketgandan so’ng Larisaga xaridorlar ko’payib qoladi. Podagra kasaliga chalingan, og’zidan doim aroqni hidi anqib turadigan qandaydir bir knyazning ish yurituvchisi, yana Ogudalovaning uyida hibisga olingan tovlamachi kassir vaho kazolar shular jumlasidandir. Bo’lib o’tgan bu to’polonlardan so’ng Larisa onasiga uyimizga birinchi kirib kelgan odamga turmushga chiqaman dedi. Bu birinchi kirib kelgan odam esa, o’rta hol chinovnik Karandishev bo’lib chiqdi. Knurovning ta’kidlashicha bu ayol faqatgina dabdaba uchun dunyoga kelgan. U eng chiroyli uzukka ko’z bo’ladigan, eng qimmatbaho brilliantdir. Tez orada qaxvaxona oldidagi maydonga Karandishevning kuzatuvida ona - bola Ogudalovalar kirib keladi. Kuyov to’ra qaylig’i Larisa Dmitrevnani qaxvaxonaga tushlik qilish uchun taklif etadi. Xarita Ignatevna Knurovning xayratlanib qarab turganini ko’rib “Bu uyimizdagi tushlikning davomi” deb aytadi. Savdogarlar ketishi bilanoq Yuliy Kapitonovich o’z rashkini yashira olmay Paratov undan nimasi bilan yaxshi ekanligini so’raydi. Bunga javoban qiz Sergey Sergeyevichda men erkaklarning eng yetuk vakilini ko’raman deydi. Zambarakdan otilgan o’q qirg’oqqa xo’jayinning kelayotganligidan darak beradi. Karandishev Larisani qaxvaxonadan tezda oilb ketadi. Biroz o’tib qaxvaxona xo’jayini Gavriilo bir nechta savdogarlar va Robinzon laqabli Arkadiy Schastlivtsevlar bilan birga kelgan Sergey Sergeyevich Paratovni kutib oladi. Partovning aytishicha aktyor Rabinzon laqabini kimsasiz bir oroldan topib olganligi

uchun bergandi. Suhbat Paratov tomonidan sotilgan Vojevatov tomonidan sotib olingan “Qaldirg’och” nomli kema haqida qiziydi. undan tasqqari to’planganlarga judayam boy janobning qiziga uylanayotganini qizning sepi uchun oltin va yombilar olayotganini aytadi. Larisa Ogudalovanning turmushga chiqishi haqidagi habar Paratovni o’ynatiradi. O’zini qizni oldida bir oz aybi borligini his qiladi, lekin eski hisob – kitoblar tugadi deb o’ylaydi.

Ikkinchi harakat

Qizg’in tus olayotgan voqea ikkinchin sahnada Ogudalovalarning uyida bo’lib o’tadi. Larisa kiyinguniga qadar xonada, Knurov paydo bo’ladi. Xarita Ignatevna savdogarni xuddi qadirlil mehmondek kutib oladi. Mokiy Parmyonich Karandishev Larisa Dmitrevnadek oyimqiz uchun unchalik yaxshi yo’ldosh emas ekanligini shama qiladi uning uchun xozirgi vaziyatda boy va obro’li inson himoyasida bo’lmoq foydaliroqekanligini bildiradi. Yo’l – yo’lakay Knurov kelinning kelin libosi nafis bo’lishi kerakligini eslatib o’tadi. Shuning uchun uning uchun butun kiyim – kechagi eng qimmat do’kondan buyurtma qilinib va barcha chiqimni o’z zimmasiga oilshini aytadi. Savdogarni ketishi bilan Larisa oyisiga to’ydandan keyin ataylab qaylig’i bilan Zabalote Yuli Kapitonich oliy sudga o’z nomzodini qo’yadigan uyezdga ketishini aytdi. Biroq Karandishev kelib Larisani bu fikrini qo’llamaydi. Larisani shoshqaloqligi uni jaxlini chiqaradi. Mastlikda kuyov uzundan uzoq nutq so’zlab Bryaximovliklar aqildan ozgani haqida aljiraydi. Izvoshchi, lo’lilar hamma pulini aysh – ishratga sovirgan, “oxiri kemasini” sotishga majbur bo’lgan janobni kelishidan xursandligi haqida gapirdi. Ogudalovalardan xabar olish navbati Paratovga keladi. Sergey Sergeyevich oldin Xarita Ignatevna bilan dildan suxbatlashadi. Keyinroq Larisa bilan yolg’iz qolganda, sevimli insoni bilan qancha vaqt ayriliqda yashay olishini bilishga qiziqadi. Qiz uchun bu suhbat azobli edi. Paratovni sevishi haqidagi savolga u doimgidek “ha” deb javob beradi. Paratov bilan Karandishevlarning tanishuvi esa janjal bilan boshlandi. Bunga sabab biri tarvuzni biri esa cho’chqaning payini yaxshi ko’rishida edi. Sergey Sergeyevich rus tilini burlaklardan o’rganganini aytadi. Bu so’zlar Yuliy Kapitonichni g’azabini keltiradi, u burlaklarni – qo’pol, nodon insonlar deb hisoblardi. Alanga olib ketayotgan tortishuvni Xarita Ignatevna bo’lib qo’yadi. U shampanskiy olib kelishni

buyuradi. Tinchlik o'rnatildi, faqat keyinroq, savdogarlar bilan suhbat vaqtida, Paratov kuyov bilan yana bir "xursandchilik" qilish uchun iloj topishini aytadi.

Uchinchi voqea

Karandishevlar uyida maxsus ziyofat. Yuliy Kapitonichni xolasi Yefrasinya Potapovna xizmatkor Ivanga bu ziyofat juda ko'p kuch talab qilishini va ko'p chiqim ketishidan nolimoqda. Yaxshiyam sotuvchi vinoda tejamkorlikni uddasidan chiqib, bir partiyaga yorliq yopishtirib olti grivendan berdi. Larisa mehmonlar taomlarga va ichimliklarga qo'l ham tekkizishmaganligini ko'rib kuyov uchun xijolat bo'ldi. Vaziyat qiyinlashib boradi. Robinzon xo'jayinni mas bo'lgunga qadar ichirish va o'zi ham ichishi uchun va'da qilingan burgundy vinosi o'rniga eng arzon, bemaza vinoni ichishga majbur bo'layotgan edi. Paratov o'zini Karandishevga bo'lgan munosabati iliqligini bildirish uchun u bilan brudershaft xolatida ichishga rozi bo'ladi. Sergey Sergeyevich kuylab berishini so'raganda Yuliy Kapitonich qarshilik ko'rsatishga xarakat qiladi. Bunga javoban Larisa gitarani olib "He искушай без нужды" romansini kuylaydi. Uning kuylashi atrofdagilarda katta ta'surot qoldiradi. Paratov shunday xazinani yo'qotganiga afsuslanayotganini qizga bildiradi. O'sha zaxoti u xonimni Volga daryosiga borishga taklif qiladi. Karandishev rafiqasining sharafiga qadah ko'tarish uchun yangi vino qidirayotgan vaqtida, Larisa onasi bilan xayrlashib chiqib ketadi. Yuliy Kapitonich shampan vinosi bilan qaytganida uy bo'shab qolganini ko'rdi. Aldangan kuyovning g'amli manalogi kulgili bir insonning fojeasini kursatadi, u g'azab va jaxl, qasos otiga minadi va stol ustidan pistoletni olib kelin va xamxonalarini qidirib toppish uchun o'zini ko'chaga uradi.

To'rtinchi voqea

Volga bo'ylab kechki sayrdan qaytgan Knurov va Vojevatov Larisani taqdirini muxokama qilishmoqda. Paratov boy kelinni xech qachon sepsis qizga alishmasligini ikkisi ham sezib turishibdi. Bu boradagi baxs nima bilan yakunlanishi haqidagi tortishuvga Vojevatov qurra tashlash yo'li bilan hal qilishni taklif qiladi. Qurra tashlangan tanga Parijdagi ko'rgazmaga Larisani Knurov olib borishini ko'rsatdi. O'sha vaqtda Larisakemalar turar joyidan tepalikka ko'tarilayotib Paratov bilan qizg'in suhbat

qurayotgan edi. Uni bir narsa qiziqtirayotgandi: endi u Sergey Sergeevichga xotinmi yoki yo'q? suyuklisini unashtirilganidan xabar topgach qiz qattiq sarosimaga tushadi. Knurov paydo bo'lganda u qaxvaxona yaqinidagi stolda o'tirgan edi. U Larisa Dmitrevnani Fransiya poytaxtiga taklif qilmoqda, agar rozi bo'lsa uni asrab avaylashga va barcha injiqliklarini bajarishga va'da berdi. Uning izidan Karandishev keldi va u kelinni do'stlariga nisbatan ko'zini ochib qo'yishga urinmoqqa urinadi uni faqat buyum sifatida ko'rishayotganini tushuntiradi. Bu topilgan jumla Larisa uchun yangilik bo'ldi. Sobiq qaylig'iga u uning uchun juda mayda, arziyas ekanligini u jaxl bilan aytadiki, agar u o'zi uchun zarur bo'lgan sevgini topa olmasa, oltin topishi mumkinligini aytadi. Karandishev Larisani bu so'zlarini eshitib, pistoletini chiqardi. "Sen xech kimga nasib qilmaysan" degan so'zlar bilan o'q uzadi. Qaxvaxonadan yugurib chiqib kelgan Paratov va savdogarlarga so'niq ovoz bilan xech qanday shikoyati yo'qligini va xech kimdan xafa ham emasligini aytib yeqiladi.

"Men bu pyesam bilan asarlarimning yangicha toifasini boshladim" degan edi Ostrovskiy "Sepsiz qiz" pyesasi haqida.

Bu dramaning yangicha talqinida yozilganini o'sha davr dramaturglari unchalik anglab yetmagan edilar.

"Sepsiz qiz" pyesasini ham navbatdagi maishiy drama deb qabul qilgan edilar. Pyesani maishiy, ijtimoiy talqini deb qaralishigauning nomi ham sabab bo'lgan edi. Pyesa avvalida "Kambag'al kelin" deb aytilgan edi. Keyinchalik uning nomi "Sepsiz qiz" deb atalgan. Uning janri tabiatini his qilmay turib, uning asosidagi dramatismni ochish qiyin. Asarda qahramonlar hayotining tashqi sharoiti bilan birgalikda uning murakkab psixologik qarama – qarshiliklarga boy xarakterlar to'qnashuvidan iboratdir.

Pyesaning hatti – xarakterlar vaqti 1870 yillarga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham Ostrovskiy voqealar shu kunlarda bo'lib o'tadi deb ta'rif beradi. Pyesa birinchi marta 1879 yilda nashr etiladi. Bu davr esa Burjuaziyaning tantana davriga to'g'ri keladi. Hayotning yangicha yashash tarziga o'tish juda tezlik bilan rivojlanib borgan.

Asar qahramonlari obrazlari tasnifi va xarakterlar taxlili

“ Sepsiz qiz ” asarining qahramonlari ana shu oʻtish davrini oʻtkir xis etishadi. Qahramonlardan biri boʻlgan Vojevatovning gapicha “*Hozir zamon boshqa, ilgari kuyovlar koʻp edi sepsiz qizlarga ham yetar edi. Hozir esa sepiga qarab kuyov topilyapti* ” deydi. Pyesaning voqealari oʻn ikki soatni oʻzida jamlaydi, yaʼni tushdan tungacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi. Shuning uchun ham pyesaning qahramonlari holatida vaqtning shiddat bilan oʻtishi, hatti – xarakatlarning tezligi sezilib turadi.

Harakat vaqtining tasviriga yana shuni qoʻshimcha qilish mumkin – ki 1 – va – 4 – aktlarning voqealari qahvaxona oldida odamlar kam paytiga toʻgʻri keladi. Bu paytda koʻpchilik xizmatchi xodimlarni tushlikdan soʻng dam olish payti, yaʼni uxlayotgan paytini bildiradi . Bu paytda faqat yangicha yashashni xoxlagan savdogar, boyvachalargina sayir qilib yurgan boʻladi.

4 – akt ham qahvaxona oldida. Faqat bu payt tun, bu paytda esa adashib yurganlarni, loʻlilar xoʻrini, qatnashuvchilarni koʻrish mumkin. Bu kun yakshanba Ogudalovalar oilasining aʼzosi boʻlmish Larisaning tugʻilgan kunidir. “ Sepsiz qiz ” asari qahramonlari muallif tomonidan oʻylab topilgan va ular Bryaximova shaxrida yashashadi.

Asarning kirish qismida Ostrovskiy oʻzi uchun oʻrganilgan uslub bilan boshlaydi. Bu shaharning urfu – odatlari va pyesadagi baʼzi bir qahramonlarni biz ikkinchi plandagi qahramonlar tilidan bilamiz. Ular qahvaxona ish yurituvchisi Gavriila va uning xizmatkori Ivanlardir. Ularning suhbatini oʻzi yakka sayir qilib yurgan boyvachcha Knurov hamda soʻzamol savdogar Vojevatov ustidan ketadi. Ularning familiyalarini ham oʻziga yarasha maʼnosi bor. “ Knur ” toʻngʻiz, qari toʻngʻiz doim oʻzini podadan chetga olib yuradigan jonivordir. Vojevati esa xush muomala, takallufli degan maʼnolarni bildiradi. Pyesaga kirish qismining maʼlum bir qismini Knurovning Vojevatov bilan suhbatini va ularga keyin qoʻshiladigan Ogudalova va Karandishevlarning suhbatini egallaydi. Bu qismda muallif sahnada amalga oshirilishi qiyin boʻlgan “ *Knurov choʻntagidan Fransuzcha gazetani chiqaradi va oʻqiydi* ” degan remarkani yozadi. Bu remarkani sahnada amalga oshirish rejissyor va aktyor uchun ancha murakkabdir. Undan kam boʻlmagan Knurovga tegishli “ *jimgina joyidan*

turmasdan qo'lini Ogudalovaga uzatadi ” degan remarka ham bor. Demak Fransuzcha gazeta o'qiydigan, bepisandlik bilan ayollar so'rashadigan insonni, ya'ni Knurovning xarakteri biz ucun aniqlashadi. Uning suhbatdoshi Vojevatov esa boy savdo firmasining vakilidir. Kiyinishi bo'yicha Yevropalikdir. U ham Knurov singari Parijda o'tadigan vistavkaga bormoqchi. Bundan uning uchun Bryaximovadagi hayot unchalik qiziq emas ekan degan ma'no kelib chiqmaydi. U odamlar men haqimda ahmoqona gaplarni gapirishmasin deb tushlikda choy ichadigan idishga shampanskiy ichishdan ham toymaydi.

Vojevatov Larisaning yoshlikdagi do'stlaridan biri. Larisa uni qisqa qilib Vasya deb chaqiradi. Ammo Vojevatovning Larisadan arazlashi uning yerga urilganligi haqidagi remarka ham beriladi. Vojevatovni Larisaga achinmasligi 4 – aktda esa xatto “ *Bizning ishimiz chetdan qarab turish*” degan remarkalar orqali uning Larisaga bo'lgan munosabati aniqlanadi.

Knurov va Vojevatovning suhbatidan biz Larisa va Paratovlarning ilgarigi munosabatlarini bilib olishimiz mumkin. Bir yil burun Paratov Larisaning oshiqclarini barchasini yakson qiladi. Larisa uni sevib qoladi. Xali uyoq – buyog'iga qarashga ulgurmasdan, u birdan g'oyib bo'ladi. Qayoqqa ketganligi ham butunlay noma'lum. Larisa “alamidan o'lishiga oz qoladi”. Endi esa Larisa kambag'al xizmatchiga turmushga chiqishga rozi bo'ladi. Bu shaxsning ismi Karandishev. U Ogudalovalarning uyida nomigagina, har ehtimolga qarshi ushlab turilgan oshiqclardan biri edi. Karandishev shaxarning eng go'zal qiziga uylanadigan kuyov to'raga aylangach juda o'ziga bino qo'yishni boshlaydi. Kerak bo'lmasada ko'zoynak taqadigan odat chiqaradi. O'zi shalaxo'rda bo'lsada izvosh ham sotib oladi. Hamma joyda “ men xoxlayman, mening istagim shunday ” degan iboralarni ishlatadigan bo'lib qoladi. Kecha hech kim emas edi, bugun Bryaximovani kazo – kazolariga aylandi. Hamma diqqat e'tibor unda – deydi Karandishev haqida Knurov. Uning ismi – familiyasi ham bir – biriga zid. Ismi Yuli (xuddi sezar) familiyasi esa Karandishev (chala, yetilmagan). Paratov esa xuddi afishalardagidek “ kemachilarning kibor boyvachchasi ”. mana bir necha daqiqalardan so'ng Bryaximovaga kirib keladi. U Vojevatovga o'zining “*Qaldirg'och*” nomli paraxodini sotmoqchi. Pyesa qahramonining ismi ham paraxodning ismiga o'xshab,

qushning nomida – Larisa grekchasiga bu “ Oq chag’alay ” deganidir. Vojevatovning Knurov bilan bo’lgan birinchi suhbatida “ Kimning puli ko’p bo’lsa o’shanga yaxshi ” , “ Har bir molning o’z narxi bor ” kabi jumlar pyesaning boshidan oxirigacha qaytariladi. Knurov Vojevatov Larisadek go’zal xonim bilan Parijda, vistavkada sayir qilish juda maroqli deydi. Yana lekin bu safar “Qaldirg’ochning narxidan kam emas” deb qo’shib qo’yadi. Bu jumlada qahramon va Paratovning paraxodi birlashtiriladi. “ Sotib olish va sotish ” sepsis qiz pyesasining barcha qaxramonlari syujet liniyasining asosiy matividir.

Knurov va Vojevatovning suhbatidagi asosiy narsa shundaki biz undan Larisa haqida – u “ soddadil ”, “ahmoq emas – ku sodda”, “ayyorlikni bilmaydi”, “hamma narsni shalop etib gapirib qo’yaberadi” ya’ni “haqiqatni” demoqchi ular. Shu kabi jumlarini eshitamiz va Larisa haqida ma’lum bir fikrga ega bo’lamiz.

Knurov va Vojevatov Karandishev haqida shunday xulosaga keladilar : u har – qanday rus mushugiga o’xshab ichib olib qiyshanglashni yaxshi ko’radi, u buning uchun albatta kaltak yeydi, bundan qochib qutilolmaydi. Xali Karandishevga qarshi ma’lum bir xatti – harakat qilinmagan bo’lsa ham pyesada oldindan hal qilinishi kerak bo’lgan tarang ipi chalinadi. Karandishevni kaltak yeyishi albatta Paratovni kelishisiz ham amalga oshardi, faqat uni kelishi bu xolatni tezlashtiradi xolos. Bu takkabbur kuyov to’rani joyiga o’tqazib qo’yish haqidagi fikrda Karandishevning barcha raqiblari yakdildirlar.

Hozir choy ichadigan vaqtni ? Qiziq! ” – degan gapidanoq boshlanadi. Aslida bu yerda konflikt uchun asos yo’q, chunki ular shampan vinosi ichishyapti aslida, lekin asosiysi bu Bryaximovalik aslzodalarga qarshi so’z aytildi. Ular uchun eng muhimi shudir. Karandishevni nega bunday o’zini tutishini biz uning “ uch yil barcha haqorat va kamsitilishlarga chidadim, uch yil sizning bu bemani ulfatlaringizni yuziga qarab ustimdan kulishlariga toqat qildim ” degan so’zlaridan bilishimiz mumkin. Endi u ham bir xuzur qilmoqchi, ularning ustidan kulmoqchi. Tahqirlangan odam, xo’rlangan odamning xissiyotlari junbushga keladi. U faqatgina qasd olish uchungina bu ishlarni qilmoqchi emas, u uni ham saflariga qo’shishni, unga ham o’zlaridek munosabat bildirishlarini xoxlaydi. Bu maqsadga yetish uchun u Larisaning unga turmushga

chiqishga rozi bo'lganligidan foydalanmoqchi. Mayli Knurovlar Vojevatovlarning pullari ko'pdir, Karandishevning eng katta boyligi Larisadir. U ana shunday foydalanadi.

Karandishev asli jizzakiroq odam. Uni "kichkina odam"lar turkumiga kiritish mumkin. Lekin, u o'zining qarama – qarshiliklardan iborat ijtimoiy xarakter kasb etuvchi shaxslardandir. Uning o'ziga xos, psixologik qarashlarini ochish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Karandishev, Vojevatov va Knurovlar suhbatlashayotganda Larisa ham o'sha yerda bo'ladi. Ammo u bularni suhbatiga aralashmaydi. U qirg'oqdagi to'siqqa suyanganicha binokldan Volganing narigi qirg'og'ini tomosha qilish bilan ovvora. U tomondagi o'rmon, qishloq va boshqa narsalar yastanib yotibdi. Larisaning fikriga o'sha tomondagi tinchlik, baxt, azoblardan xoli hayot o'shatomondagidek tuyuladi. Larisa binokldan u tomonni katta, yaqin xolatda ko'radi, go'yoki uning o'zi ham xuddi o'sha tomondagidek sezadi. O'sha tomonda bo'lgisi keladi. Boshqalarga Larisaning bu xoxishlari kulgili tuyuladi. Ogudalova uni "cho'pon qiz" deb atasa, Paratov esa "Saxrolarga ketaman, yaxshi joyni qoldirib" deb hirgoyi qiladi. Karandishevga esa Larisaning bu istaklari haqoratomus tuyuladi. O'zini kamsitilgan xisoblaydi. "Kimdan qochmoqchisiz ? nima men bilan yurishdan or qilyapsizmi ? " deb savolga tutadi.

Larisa Volganing u tomonlariga boqib, faqatgina tinch hayotni emas, o'limni ham o'ylaydi. Panjaraning narigi tomonidan jarlik, yo'qlik haqida hayol suradi. Bo'lg'usi kelajakdagi o'lim xissi uni cho'chitadi, qo'rqitadi. U Paratov haqida " Hech qachon ko'rishmasak kerak " – deb o'ylaydi. Shu mahal zambarak ovozi eshitiladi. Larisa qo'rqib ketadi, bu paytda esa ushbu otishma orqali Paratovni kutib olish marosimi bo'layotgan edi.

Birinchi pardadagi Larisa va Karandishevning dialogini asarning *tuguni* deyish mumkin. Karandishev o'zini hecham Paratovdan kam emasligini aytganda Larisaning unga nisbatan bo'lgan munosabatini keskin ochilishi " siz o'zingizni kim bilan tenglashtiryapsiz? Agar meni ihtiyorim o'zimda bo'lsa, agar Sergey Sergeyich kelib bir imo qilsa bo'ldi. men shak – shubxasiz u bilan ketar edim " – deyishi ular o'rtasida keskin qarama – qarshilikni chiqishiga sabab bo'ladi. Larisa kuyovdan sevgi,

xayrihohlikni kutadi. Lekin uning o'rniga u undan ta'na, ginalrni ko'radi xolos. Uning bu ta'nalarini tushunishni xoxlamaydi. Har ehtimolga qarshi ushlab turilgan bu kuyovni tushunmaydi. Uning o'zini dardi xasratlari kechinmalari boshqani dardini xis qilishga yo'l qo'ymaydi. Larisada biz shart – sharoitlar qurboniga aylangan insonni, onasining xohish istaklari qurbonini ko'ramiz. Shunday bo'lsa ham eng asosiy qarorlarni u o'zi qabul qiladi hech kim bilan kelishib o'tirmaydi. Bu ma'noda u hech kimga tobe emas, u ozod insondir.

Birinchi pardaning asosiy voqeasi bu Paratovning kelishidir. Bu voqea butun bir pyesaning ichki og'riq nuqtalarini chertilishga, jiddiy – kulguli hodisalarga sabab bo'ladi.

Pyesada Larisa tufayli “ bir – biriga yaqin ko'ngillar ” uchrashadi. Yangi davr kishilari bu dalil ham kulgi, istexzo va ishonchsizlik vahokazolarni tug'diradi. Vojevatov o'zini Robinzon bilan uchrashuvi, do'stligini istehzo bilan “ ikkita tana – bitta ko'ngil ” deb ataydi. Robinzon esa unga qo'shimcha qilib “ va bitta cho'ntak ” deb qo'shib qo'yadi.

Robinzonning komik xolati Larisaning fojeasi bilan taqqoslanadi. U ham “ kaltaklar ” ostida yashaydi, u ham boshqalar xisobiga boy zodagonlar himoyasida, bunday hayot tarzini Robinzonning o'zi tanlagan. Bryaximovaga keliboq Robinzon yangi homiyni – Vojevatovni topadi. Paratovning o'ziga masxaraboz topib olganini bilib xayratdan yoqasini ushlaydi va u ham Paratovga o'xshab bu “ o'yinchoq ” dan foydalanmoqchi bo'ladi. Knurovda Larisaga nisbatan uncha muhabbati yo'qligi, faqat Parijda u bilan qo'ltiqdashib yursa yaxshi bo'lishini aytadi.

Larisaga oshiq bo'lgan to'rtta qayliqdan faqatgina manashu Vojevatov sevgi hissiyotidan xolidir. Unda boshqa hissiyot ho'jayinlik hissi, hukmronlik hissi, o'ziniki qilish hissi yuqoriroqdir.

Nemirovich Danchenko Vojevatovning “mag'zini”, “hamma narsaga erishaman”deb atagan edi. U juda ehtiyotkor, moliyaviy ehtiyotkor odamdir. Ikkinchi pardadan boshlab intrigani rivojlanib borishi Paratovga bag'ishlanadi. “U burgutday dovyurak inson” . Ogudalova, Vojevatov va hattoki Larisaning tassavurida ham u shunday inson. Larisa Paratov haqida gapirganda uni “erkaklarning timsoli,

o'lgunimcha shu fikrimda qolaman" deydi. Lekin boshqacha voqea ro'y beradi. Uning fikri o'zgaradi va bu uni o'limi sari qo'ygan birinchi qadami bo'ladi.

Paratov o'zini rus barini, qalbi qaynoq inson sifatida ko'rishlarini hohlaydi. Karandishevni fikri bo'yicha bu "Dovyurakligi haqiqiy emas, yolg'on. U kerakli paytda har qanday sevimli ayolini ham tashlab ketishi, undan voz kechishi mumkin" deb aytadi.

Paratov Bryaximovaga Larisa uchun qaldirg'och kemasini uchirib kelganligini sal bo'lmasa kemasi xalokatga yo'liqishi mumkin bo'lgani misol qiladi. Paratov savdogarlarga "foyda ko'rsam hamma narsani "sotaman" " deydi. Bir qaraganda bu kemalari uchun aytilgandek tuyuladi, ammo keyinchalik hozircha Paratov bu soxada hamma narsani nazarda tutganligi ma'lum bo'ladi. Bu Paratovning Larisaga bo'lgan muhabbati qurum axilning xiralashishi "yaxshiyam Larisag uylanib qo'ymadim, rossa kulgi bo'lardim" deydi.

Paratovning qalbida sonlar, xisob – kitoblar doim g'olib. Endi u ham Vojevatovdek xisob – kitobli. Tan olish kerak Paratovning roli liniyasini ijro qilish uchun murakkab psixologik jarayondan iboratdir. Ba'zida u aytayotgan gapiga qarama – qarshi xatti – harakatlar qiladi. U Larisaning turmushga chiqayotganini eshitib kimga turmushga chiqayotganini so'ramaydi. Bir yil oldin aldab ketgan qizi Larisani uchratib, undan " Meni uzoq kutdingmi ?" deb so'raydi. Uning suhbatida oladigan javobi uning uchun juda muhim, larisaning iqror bo'lishi esa unga huzur bag'ishlaydi.

Paratovda sevgi bo'lmasligi kerak, "har doim ham ayol azoblanishi, qiynalishi kerak. Buni men o'ylab topganim yo'q" deydi. Knurovni Ogudalova bilan kelishuvi va Paratovning Karandishev bilan janjalli tortishuvidan so'ng dramatik tugun yechiladi va asarda jadallashish va ortga qaytmaslik siljish ro'y beradi. Paratov Karandishevni yerga urish, uni mazax qilishni hohlaydi. Paratov iltimoslarga quloq solganday, hammamiz ham rusmiz, kechirimlimiz deydiyu, lekin o'zi asta sekin maydalab qasos olishni davom ettiradi.

Uchinchi pardani boshidayoq biz Paratovning Karandishevdan olayotgan qasdi Larisaga qanchalik istiroblarni keltirganini ko'ramiz. Mexmonlar Karandishevni ichirib uni mast qilishayotganini ko'rib Larisa " axir ular meni azoblashyaptiku " deydi.

Paratov yana Karandishevni o'z xoliga qo'yishni va'da qiladi. Lekin, Larisaning dilrabo qo'shig'idan so'ng u o'z qasдини oxiriga yetkazishini aytadi. ketishdan oldin mast Karandishevni ko'rsatib Vojevatovga “qara uni shu turishi juda kulguli” deydi.

Qo'shiq, romanslar insonda muhabbatni kuchaytiradi, sevgini olovlantiradi. O'zida sevgi degan hisni tuymaydigan Vojevatov, ayolni bit buyum, maqsadga intilishdagi narsa deb biluvchi Karandishev kabi shaxslarni Larisa albatta seva olmaydi – da. Shuning uchun ham Larisaning Karandishev sevib qolishi haqidagi fikr oldindan halokatga maxkumdir.

Larisaning Paratovga bo'lgan ishqini uni ko'r qiladi. Uning ayblarini ko'rsatmaydi. “Qanday uni eshitmalik mumkin?”, “Unga ishonmay bo'ladimi?” – deydi u Paratov haqida. Uning uchun u nima qilsa ham hammasi to'g'ri va oqilonadir. Pyesa qaxramonlari va shu jumladan Paratov, Karandishev, Vojevatov, Knurov va boshqalarning ma'naviy inqirozi, rus insonining bryaximovadagi tanazzulga yuz tutishi aniq va ravshan ko'rsatiladi.

Paratovni o'z kibri – xavosi, yolg'on muhabbati va Karandishevni xisob – kitobli muhabbati Larisani murakkab axvolga soladi. Uning sof sevgisi ustidan kulinadi. Paratov uni juda yaxshi biladi, uni qalbini sezadi. Shuning uchun ham “Eng sof muhabbat sari intiling”, “Men bilan xozir Volgaga sayrga yuring” deydi. Larisani mot qilgan so'z “Xozir yoki hech qachon” so'zidir. Bu Larisaning Paratovdan kutayotgan eng ezgu so'zi edi axir. U rozi bo'ladi.

Uning roziligi xatto Paratovni hayratga soladi. Axir bu turmushga chiqayotgan ayolga nimalar olib kelishini yaxshi biladi. Larisa uchun esa shu daqiqadan boshlab qaylig'I bilan bog'lab turgan hech narsa qolmadi. Endi u bilan uyga qaytmaydi. Qaytmasligini sababi esa uni inson ekanligida. Qaylig'ini sevmasa ham lekin uni hurmat qilish kerak degan fikrda bo'ladi. Larisaning Paratov bilan chiqib ketishi Karandishevga o'z ta'sirini o'tkazadi. U o'zini anglab yeta boshlaydi. U bazm uyushtirib o'zini bir ko'rsatmoqchi, kiborlar safiga kirmoqchi, ulardan o'ch olmoqchi edi. Aksinch, o'zi oyoq osti bo'ldi. Hammaga kulgi bo'ldi, uni xo'rlashdi. Qaylig'I esa uni tashlab ketdi. Uqubatlar uni ko'zini ochadi. Ustidagi qobig'i yechiladi. U endi kulgili emas. Bizni endi unga raxmimiz keladi. Jizzakilikdan o'z qadrini biluvchi va bu

jamiyatga o'z munosabatini bildiruvchi, taxqirlangan sha'nini ximoyachisiga aylanadi. Bu pyesadagi eng taranglashgan xolatli joyidir. To'rtinchi parada bizni yana qirg'oqqa yetaklaydi. Volgada suzib yurgan kemalar vahokazolar. Larisa uchun esa uni Bryaximovadagi azoblaridan ajratib turuvchi chegara. Uni bu azoblardan qutqaruvchi najotdir.

Uning orzu umidlari, dunyosi kuladi. Knurov uni u bilan ketishga chorlaydi. Lekin Larisa rad etadi. Larisa o'zini o'zi muloxaza qilib o'zi uchun kutilmagan narsani ixtiro qiladi. Uni topgani – inson o'zini o'zi o'ldirishi qiyin, chunki yashash xissi kuchliroqdir. U birinchi bor o'zining qadri sha'ni oldidagi aybini o'ylab qoldi.

Karandishev esa endi butunlay boshqa odamga aylandi. Mashaqqatlar uni aqlini yangilaydi. Endi u Larisani himoya qilmoqchi. “ Men sizni ximoya qilish uchun keldim ” deydi. Lekin Larisa Karandishevda o'zgarishni sezmaydi. U o'sha oldingi Karandishev deb o'ylaydi.

Nima uchun Larisa Karandishevga uni otganidan keyin raxmat aytadi ?

Chunki, bu o'q uni tubanlikka qulashdan, odamlar qo'lida narsaga aylanishdan saqladi.

U hammani kechirdi, uning sevgisi umuminsoniy sevgiga aylandi. Larisani halok bo'lish sahnasiga Ostrovskiy pyesa qatnashchilarining hammasini guvohga aylantiradi. Ularning hech biri shunchaki ko'ngilxushlik, xursandchilik borib oxiri bunday yakun topishini o'ylab ham ko'rmaganlar. Bu insonlar Larisadek sevgi, muhabbat orqali, uning mashaqqatlari orqali o'zgarishlariga ishonch balki yo'q, lekin qalay ular bu voqeadan o'zlari xayajonga tushadilar. Bu ham o'z navbatida ma'lum o'zgarish yaratishi ham mumkin.

Asardagi obrazlar uchun xarakterlar taxlili

Ogudalova Xarita Ignatevna bu ayol pulni juda yaxshi ko'radi. Avval u boy zodagonlar oilasidan bo'lib, xozirgi kunga kelib u ancha kambag'allashib qolgan. Xarita Ignatevna bunga chiday olmaydi. Qizlarini boy kuyovlarga berib ular orqasidan boyishga urinadi. Lekin hamma qizlari ham onasini aytganini qilib, boy kuyovga tegib baxtli bo'lmagan. Buni Vojevatov Knurov bilan suhbatida aytib o'tadi:

“Knurov : Axir, ikki qiz uzatkan – ku.

Vojevatov : Uzatishgaku uzatgan – a, ularning o'zlaridan so'rash kerak ;turushlari qanday ekan. Katta qizini bir Kavkazlik bek olib ketti. Juda qiziq bo'ldi – da. U, qizni ko'riboq hang – mang bo'lib qolipti, ikki hafta yeg'lapti, qizning oldidan nari ketmashish, ko'zini alang – jalang ilib xanjarini ushlab turganmish, hech kimni qizga yaqinlashtirmapti. Shunday qilib uylanibdi, lekin Kavkazga yetmasdanoq birovga rashk qilib so'yib tashlapti deyishadi... O'rtancha qizi chet eldan kelgan birovga tekkan ekan, keyincha, ma'lum bo'lishicha, u chet ellik emas, bir firibgar ekan.”...

Xarita Ignatevna kambag'al bo'lsa ham atrofida qilarga o'zini boy qilib ko'rsatadi. Ignatevna ziyofatlarni judayam yaxshi ko'radi. Misol uchun Vojevatov va Knurovlarni suhbatiga quloq soladigan bo'lsak:

“ Vojevatov : O'zi ham o'yin – kulguni sevadigan xotin. Puli esa mundaqroq kun ko'rishga ham yetmaydi.

Knurov : Qayerdan oladi bo'lmasa?

Vojevatov : Shu kuyovlar bo'yniga – da. Qizi sizga yoqdimi, cho'ntakni kavlang. Keyin kuyovdan qizning sepiga deb oladilar, lekin uylanmoqchi bo'lsangiz, sep so'ramaysiz.”... deyiladi.

Xarita Ogudalova boy insonlarga yaltoqlanadigan ayol. Buning yaqqol misoli tariqasida Knurov va Ogudalovalarning suhbatini olsak bo'ldi:

“Knurov :Xech kim yo'qmi ?

Ogudalova : Xech kim Moki Parmyonich.

Knurov : Juda soz.

Ogudalova : Bu baxtim tarixini qayerga yozib qo'ysam ekan – a!.. Qulluq, Moki Parmyonich. Juda xursand bo'ldim. Shodligimdan, hatto o'zimni yo'qotib qo'ydim... To'g'risi, sizni qayerga o'tqazishimni ham bilmay qoldim.

Knurov : Baribir, qayerga bo'lsa ham, o'tiraveraman.

Ogudalova : Larisani avf etasiz, u kiyinyapti. Chaqirsam ham bo'ladi.

Knurov : Yo'q, ovora qilmang!

Ogudalova : qanday shamol uchirdi – a ?

Knurov : Sanqib yuribman, ovqatdan oldin, doim mana shunaqa sanqib yuraman, yo'lakay kirib qoldim.

Ogudalova : Sizing poyqadamingizni biz alohida baxt deb xisoblaymiz, Mokiym Parmyonich, siz bundan xotirjam bo'ling! Bu – ulug' baxt.” ... deb aylib o'tilgan.

Laganbardor tullak desak ham bo'ladi. Lekin xulqi shunday bo'lsa ham, baribir u ona. Albatta qizlarini baxtli bo'lishini, biror nimaga zoriqib qolishini xoxlamaydi. Xarita Ignatevna shuning uchun ham qizini boy oilaga, boy kuyovga berishni to'g'ri deb biladi. Ogudalova xozirgi holati, kambag'al bo'lib qolgani yoqmaydi. Ignatevna qizi uni aytganlarini so'zsiz bajarishini xoxlaydi. Qo'pol qilib aytganda Xarita Ignatevna qizi Larisa Dmitrevnani bozorga solishni xoxlaydi. Boy insonlarni o'z uylariga, ziyofatga chaqirib qiziga chiroyli kiyimlarini kiydirib, agar mehmonlar talab qilsa, gitara chalib qo'shiq aytib berishini buyuradi.

Larisa Ogudalova Dmitrevna bu qiz Xarita Ignatevna Ogudalovani uchinchi qizi. Larisa juda yuvosh aqilli qiz. U haqdagi tarifni Vojevatov ham Knurov bilan suhbatida gapirib o'tadi:

“Knurov : Qanday qilib qo'lga tushib qoldi ekan – a ? Ogudalovalar avlodi ancha tuzuk ediku, qo'qqisdan Karandishevga laqqa tushipti ! Bo'lmasa o'z epchilligi orqasida uyi doimo yosh – yalanglar, bo'ydoqlar bilan to'la edi ! ...

Vojevatov : To'g'ri, uyiga keladigan xaridorlar juda mo'l, nega desangiz, u yerlarda doimo xursandchilik ! Qiz bo'lsa, bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday : chevar, sozanda, bulbuldek ovozi bor, muomalada tortinchoq emas. bu hislatlar kimni o'ziga tortmaydi deysiz. Lekin, uylanishga kelganda, mulohaza qilish kerak bo'ladi.”

Lekin, Larisa shuncha fazilatga ega bo'lsa ham Vojevatov aytgandek uylanishga kelganda hamma mulohaza qiladi. Gitara chalishni yaxshi ko'radi. Juda yaxshi ovozi bor. Kuylashni sevadi. Larisa ham yaxshi kiyinadi, lekin unchalik hashamdor emas. Pulga unchalik qiziqmaydi. Asarning ikkinchi sahnasidagi vojevatov va Knurov suhbatidan yana shuni aniqlash mumkin – ki Larisa iloji yo'qligidan o'ziga mos bo'lmagan umr yo'ldosh tanlagan. Misol uchun quyidagi suhbatni olaylik:

Knurov : Bir nimaga aqlim yetmayapti, nahotki Larisa Dmitrevnaga shu Karandishevdan bo'lak er topilmasa ?

Vojevatov : Topilardiyu, lekin qiz tushmagur soddaroq.

Knurov : Bu nima deganingiz ? Befahm demoqchimisiz ?

Vojevatov : Yo'q, befahm emas, onasiga o'xshab hiyla qilishni, ayyorlik, hushomadgo'ylikni joyiga qo'yolmaydi. Gapning lo'ndasini aytib qo'yaqoladi.

Knurov : Ya'ni rostgo'y shundaymi ?

Vojevatov : Ha, ha, rostgo'y, lekin sepsis qizlar uchun bunday qilish sira ham mumkin emas. Biron kishi yoqib qolsa, qizi tushkur oqizmay tomizmay rostini aytib, sirini ochadi – qo'yadi ! Masalan, o'tgan yili Sergey Sergeyich Paratov paydo bo'ldi. qiz bechorani qarab ko'zlari to'ymadi ham. U bo'lsa ikki oycha kirib – chiqib yurdi, butun kuyovlarni tum – taraqay to'zitib yubordi, keyin birdaniga qayoqadur g'oyib bo'lib ketdi. Qayoqqa ketgani noma'lum.

Knurov : Bir gap bo'lganmi o'zi ?

Vojevatov : Kim biladi deysiz, alomat odam. Qiz uni chunonam sevib qolgan ekanki, hajrida kuyib o'layozdi. Qanday ko'ngilchan qiz – a. orqasidan darrov yo'lga chiqqan ekan, onasi ikki stansiya naridan qaytarib kelipti – ya!

Larisa Vojevatov aytgandek Paratovni qulog'igacha sevib qolgan, uning birgina orzusi Paratov bilan birga baxtli hayot kechirish. Larisa qatiyatsiz, itoatgo'y qiz.

Tarbiyali boylar bilimini olgan. Lekin, qariqiz. Onasining aytgan gapini qiladigan chizgan chizig'idan chiqmaydigan qiz:

“Vojevatov : Ikkitasi kirib – chiqib yurishgan edi. Bod kasaliga muhtalo bo'lgan bir qaltiroq cholu, yana bir bekning o'ziga tuzukroq sarkori, lekin doim ichib yuradigan odam. Larisaning ko'ngliga sig'masa ham ular oldida noz – karashma qilishga majbur, chunki onaning buyrug'i shunday.

Knurov : Rostini aytganda, bechora qizning ahvoli yomon ekan – da.

Vojevatov : Shunaqa, odamning kulgusi keladi. Goho bechoraning ko'zida jiqqa yoshu, onasi kulishga majbur qiladi....”

Larisa Dmitrevna juda go'zal qiz. Uning birgina kamchiligi kambag'alligi va sepi yo'qligida. Shuning uchun ham ko'pchilik u bilan faqat ko'ngilhushlik qilib yurishni xoxlaydi. Misol uchun :

Knurov : Nimasi yaxshi deysiz ! Bittasi Larisa Dmitrevna oldida qilpillab, qosh – ko'zini maqtasa, bittasi eshilib shirin so'zga tushadi. Xuddi xumga tushgan ariday g'ung'illab bir og'iz gap aytishga gal berishmaydi. Uning yakka qolgan paytini topib, tanho uchratish ma'qul.

Vojevatov : Uylanish kerak.

Knurov : Uylanish kerak emish! Iloji yo'q – da. Undan tashqari harkim ham orzu qilavermaydi, masalan meni oling, mening xotinim bor.

Vojevatov : To'g'ri, iloji yo'q ...Yetolmayman puf sassiq – da Mokiya Parmyonich.

Knurov : Hali shunaqa deb o'ylaysizmi ?

Vojevatov : Turgan gap ! Hamma gap siz o'ylaganday emas. Ko'pga tuzoq qo'yib ko'rishgan – u ,biroq ilinmagan. Mana endi, hechqanday takallufsiz, Karandishevga berib qo'ya qolishdi. Nima deysiz endi er – da.

Knurov : Shunaqa qiz bilan Parij vistavkasiga borsang, ajoyib bo'ladi – da!

Vojevatov : Ha, zerikmasdi kishi, quling o'rgilsin sayohat bo'lardi – kuya. Rejangiz chakki emas Mokiym Parmyonich.” deyilgan.

Sergey Sergeyich Paratov bu inson kema xo'jayini. Aysh – ishratni yaxshi ko'radi. Yaxshi kiyinadi, o'ziga bino qo'ygan olifto yigit. Larisani jonidan ortiq sevadi lekin, sevgidan ko'ra pulni ustunroq qo'yadi. Vaqtini bemani ishlarga ketqazadi. Olchoq, egaist, o'zini yaxshi ko'radigan, ishni ko'zini biladigan, tadbirkor yigit. Hammaga o'zini imkoniyatlari bor odam qilib ko'rsatishni yaxshi ko'radi. Paratov Larisani sevishini uning Larisa bilan suhbatidan bilish qiyin emas:

Paratov : Kutmovdingiz – a ?

Larisa : Yo'q, shu kunlarda kutmovdim. Ko'p kutdim, lekin anchadan buyon kutmay qo'ygan edim.

Paratov : Nima uchun kutmay qo'ydingiz ?

Larisa : Noumid edim. Siz qo'qqisdan g'oyib bo'ldingiz, bir parcha xat ham...

Paratov : Siz uchun arzigulik xushxabar bo'lmaganidan xat yozmadim.

Larisa : Men ham shunday deb o'ylovdim.

Paratov : Hali erga tegyapman deng ?

Larisa : Shunday, tegyapman.

Paratov : Sizdan bir narsa so'rashga ijozat bering, meni ko'p kutdingizmi ?

Larisa : Nima qilasiz surishtirib ?

Partov : Men shunchaki surishtirganim yo'q, Larisa Dmitrevna, meni masalaning nazariy tomoni qiziqtiriyapti. Xotin kishi qattiq sevgan kishisini qancha vaqt ichida unutaoladi, ajrashgan kunini ertasigami, bir hafta yoki bir oydan keyinmi ? Gamlet o'z onasiga qarab “Oyoqlarida kovushi hali eskirmay turib” deganda haqlimidi. Shuni aniq bilmoqchiman.

Larisa : Savolingizga javob bermayman, Sergey Sergeyich , men haqimda nima o'ylasangiz o'ylayvering.

Paratov : Men sizni hammavaqt hurmat bilan yodga olaman. Lekin, siz erga tegyapsiz – ku ?

Larisa : Meni majbur etgan nima ? G'am – g'ussada yonib turganingda iltifot qilib, kulishga majbur etsalar, ko'rganda ko'ngling aynidigan kuyovlarni ro'para qilsalar, har kuni uyda janjal bo'lsa, o'z uyingda kun kechirib bo'lmagandan keyin, o'z uyingdan, hatto tug'ilib o'sgan shahringdan qochish darkor bo'lgandan keyin, nachora ?

Paratov : Larisa demak siz ?

Larisa : Nima “men ?” Xo'sh , nima demoqchisiz ?

Paratov : Kechiring ! men sizning oldingizda gunohkorman. Demak, siz hali meni unutgan emassiz, siz meni ... hamon sevasiz ? Ayting ... ochiqroq ayting!

Larisa : Albatta sevaman, so'rab nima qilasiz ?

Paratov : Raxmat, tashakkur. Men sizdan kechishim mumkin. Lekin, sevingizdan kechish juda og'ir bo'lardi, bilsangiz.

Bunday suhbatdan so'ng bu ikki yoshni sevishmagan deyish qiyin. Lekin Paratovga sevgidan, sevikli yoridan ko'ra pul, biror bir boyroq ayol ustunroqligini quyidagi suhbatdan bilish mumkin:

Larisa : Nahot ?

Paratov : Agar birovni mendan ortiqroq ko'rsangiz, meni qattiq haqorat qilgan bo'lardingiz. Sizni bu gunohingizni osonlikcha kechirmas edim.

Larisa : Endichi ?

Paratov : Endi , umrim bo'yi sizning timsolingiz hayolimda barq uradi. Biz ajralishamizu, lekin eng qalim do'stlar bo'lib qolamiz.

Larisa : Demak, xotin kishi azob cheksa ham, qon qussa ham mayli, faqat sizni sevsas bas, shundaymi ?

Paratov : Nima qilaylik, Larisa Dmitrevna! Sevgida tenglik yo'q, bu mening kashfiyotim ham emas. Sevgida ba'zan ko'z yoshi to'kishga to'g'ri keladi.

Larisa : Faqat xotin kishiga – ya ?

Partov : Albatta, erkakka emas.

Larisa : Nega , axir?

Paratov : Buni tushuntirish qiyin emas, chunki erkak yeg'lasa, “xotinchalish ” degan laqab qo'yadilar. Erkak uchun odamzod o'ylab chiqargan haqoratlar ichida bundan qattiq haqorat yo'q.

Larisa : Koshki sevgi oshiq – mashuqda barobar bo'lsa, ko'z yoshi ham bo'lmas edi. Shunaqasi ham bo'larmikan?

Paratov : Ba'zan shunaqasi ham bo'ladi. Lekin bu, xolvafurushning kulchatoyiga o'xshagan qandaydir bir bema'ni ...

Larisa : Men sizga aytishim lozim bo'lmagan gaplarni aytib qo'ydim, Sergey Sergeyich, o'ylaymanki ochiq so'zligimni boshqacha tushunmassiz.

Paratov : Meni kim deb o'ylayapsiz, boshigiz ochiq bo'lsa ham bu boshqa gap, nikoh men uchun muqaddas ish, ijozat bering, bilay, bo'lgusi zavjangiz ancha qadr qimmatli va yaxshi fazilatli odaam bo'lsa kerak?

Larisa : Yo'q. bittagina fazilati bor, xolos.

Paratov : Bitta bo'lsa oz.

Larisa : Oz bo'la ham soz!

Paratov : Masalan ?

Larisa : U meni sevadi.

Paratov : Unday bo'lsa chinakam qimmatbaho fazilat ekan. Oilaviy hayot uchun eng muhimi ham shu.

Bu suhbatdan Paratov egaistligini ham bilishimiz mumkin.

Yuli Kapitonich Karandishev bu inson unchalik boy bo'lmagan chinovnik yigit. Oiliy ma'lumoti yo'q. ota – onasi yoshligida vafot etishgan va bu chinovnik, xolasi Yefrosinya Patapovnani qo'lida katta bo'lgan. Karandishev jurat'siz yigit. Gapini o'ylamay gapiradigan. Maqtanchoq yigit. Ko'p gapiradi. Ichkilikni ko'tarolmaydigan yigit. Uning xarakterini Knurov bilan Vojevatovning suhbatidan aniqlaymiz.

Knurov : Bu Karandishev qayerdan paydo bo'ldi o'zi.

Vojevatov : U uch yildan beri shu xonadonda o'ralashib yurardi. Uydan haydashga – ku haydashmasdi, ammo bir pullik hurmat ham qilishmas edi. Boy kuyovlarning qorasi ko'rinmay qolgan kezlarda esa, uylari qup – quruq bo'lib qolmaslik uchun irimigauni taklif qilib qo'yishardi. Bordiyu biror boyroq kuyov chiqib qoldimi, bechora Karandishevning ahvoliga maymunlar yig'lardi. Unga qarash, gapirish qayoqda, itmisan, eshakmisan ham deyishmas edi. U bo'lsa bir burchakka siqilib olib, turli – tuman tovlanib o'tiraverardi. Bir martaba o'zini otmoqchi ham bo'ldi, lekin eplolmay kulgi bo'ldi, xolos. Paratov kirib – chiqib yurgan paytlarda ajoyib bir hodisa ro'y bergan , ajoyib hodisa ... Nima bo'ladiyu bir ko'ngil ochish kechasi tashkil qiladilar, harkim istagan libosini kiyib kelishi kerak. Karandishev yo'ltosarlar kiyimini kiyib, qo'lga bolta ushlab keladi, hammaga, ayniqsa Sergey Sergeyichga xo'mrayib qaray boshlaydi.

Knurov : Xo'sh, undan keyin ?

Vojevatov : Qo'lidan boltani tortib olib, o'z kiyimini kiyishga buyurgan. Bo'lmasa hozir buyerdan yo'qol deyishgan.

Knurov : Demak, halol xizmati badaliga munosib in'om olgan ekan – da, sho'rlik ! O'zi ham juda hursand bo'lsa kerak !

Vojevatov : Nimasini aytasiz, xursand bo'lganda – chi, o'ziga yo'q xursand. Rosa kulgi bo'ldi – da ! Haqiqiy tentak . ogudalova uni tezroq uylanib, gap – so'z bosilguncha o'z mulkiga ketaqolsin deydi. U bo'lsa Larisani qo'litiqlab olib shahar bog'ida yurgani – yurgan, yana qanday deng , shu qadar kekkayib yuradiki biror narsaga qoqilib yeqilib tushadi deb qo'rqasan, kishi. Yana, nima uchundir, ko'zoynak taqib olgani oshiiqcha, ilgari bo'lsa sira taqmas edi. Salomni ham zo'rg'a beradi, shu qadar kerilib ketdiki asti qo'yasiz, - avvallari mutlaqo tovushi ham chiqmaydigan odam birdan : “Men,menlab” qoldi.

Knurov : Xuddi rus dehqoniga o'xshabdi – da : u ham faqat ichganigagina xursand bo'lib qolmaydi, to biror narsani sindirib , birortasi bilan mushtlashib , o'lgudek kaltak yeb , hammaga masxara bo'lmagunicha ko'ngli o'rniga tushmaydi, ana shulardan keyingina uyiga ketadi.” – deyiladi.

Mokiy Parmyonich Knurov bu inson juda boy o'ziga ishongan shaxs. Oliy ma'lumotli kishi. O'z zamonasining usta savdogarlaridan. Oilali to'rt nafar farzandi bor.qizlarga suyagi yo'q. u doim o'zining boyligidan , pullaridan foydalanib ish ko'radi. Ovrigi toklimasligi uchun Larisani xotin emas o'zining o'yinchog'I qilib olib yurishni xoxlaydi. Shuning uchun ham doim Xarita Ignatevna Ogudalovaga ya'ni Larisaning onasiga xushomad qilib pul bilan ta'minlab turadi. Misol uchun asarning ikkinchi sahnasida Xarita Ignatevna bilan Knurovning suhbatini olsak:

Knurov : Shunday qilib, Larisa Dmitrevnani erga beryapman deng!

Ogudalova : Shunday, Mokiy Parmyonich, erga beryapman.

Knurov : Sepsiz bo'lsa ham uylanadigan kishi topilipdi – da, bo'lmasa?

Ogudalova : Albatta,topildida Mokiy Parmyonich, bizda pul nima qilsin ?

Knurov : Kuyovingiz, qanday, o'ziga tuzuk odammi ?

Ogudalova : Qayoqda deysiz! Unchalik emas !

Knurov : Xo'sh ... Larisa Dmitrevnani o'shanday kambag'al kishiga berib, yaxshi ish qildim deb o'ylaysizmi ?

Ogudalova :Bilmadim, Mokiy Parmyonich. Menda nima gap hammasi Larisaning o'z ixtiyori bilan bo'lyapti.

Knurov : Siz o'z qizingizni nima deb o'ylaysiz ?

Ogudalova : Nima deyishimni ham bilmay qoldim : sizga quloq solishdan boshqa ilojim yo'q.

Knurov : Larisa Dmitrevnada faqir oilahayotiga mos pastkashlik va dunyoviy tirikchilikka xos sifat yo'q, tushunasizmi, axir.

Ogudalova : Yo'q, yo'q, hech yo'q!

Knurov : U bir malak.

Ogudalova : Malak, Mokiy Parmyonich.

Knurov : U faqat hayotning ziynati bo'lib yaratilgan.

Ogudalova :Shunday Mokiy Parmyonich. Yasan – tusan uchun yaratilgan.

Knurov : Xo'sh, sizning Karandishevingiz shunday yasantirib qo'yishning uddasidan chiqarmikan ?

Ogudalova : Yo'q qayoqda deysiz !

Knurov : Larisa bunday faqir, meshchanlarhayotida bo'g'ilib qoladi. Xo'sh, keyin nima qiladi ? Sarg'ayadi, sil bo'ladi, vassalom.

Ogudalova : Qo'yingchi , bu nimasi ! Xudo saqlasin !

Knurov : Erini tezroq tashab yana o'z bag'ringizga qaytishga aqli yetsaku yaxshi

– ku

Ogudalova : Bu ham mening uchun ko'rgilik bo'ladi. Mokiy Parmyonich : oshib – toshib yotgan nimam bor. Nimamga suyanaman , oldimda olib o'tirib.

Uning bu gaplari Ogudalovaga juda ham yoqqan. Mokiy Parmyonich qinalib kelib o'tirmasin. Doim aytardilar. Hammagayam oxirigigarga tugamaslik mumkin. Endi qachon bo'sa keladi undan biitta ikkita narsa sizga qarab o'yiribdi. Knurov o'zidan salgina pasroq tabaqa vakillari kelgandi so'rashgisi kelmayapti degandi, mana endi menga ko'rsatgani keldida menga ko'rsatdi agar oladiga bo'lsa olsa.

Vasiliy Danilich Vojevatov bu inson juda ishbilarmon bo'lib, katta savdo firmalarida ishlaydi. Ota – onasi vafot etgan. Qizlar bilan tez til topishib ketaolmaydi. Qo'lidan kelmaydigan ishga urinmaydi. U yoshligidan Larisa Dmitrevna bilan birga katta bo'lishgan. Shuning uchun ham u haqdagi ma'lumotlardan doim xabardor. Xatto ko'p narsani Larisaning o'zi aytgan deb o'ylayman. Chunki tanishlari ichida faqat shu “ Vasya ” ga ishonar edi. Xatto – ki bo'lajak turmush o'rtog'i uni Vasya deb chaqirganiga rashk ham qiladi. Bu voqea to'rtinchi sahnada bo'lib o'tadi:

Larisa : men xozir Volganing u tomonini tomosha qildim! Qanday chiroylik, tezroq qishloqqa ketaylik.

Karandishev : Volgani tomosha qildingizmi ? Xo'sh Vojevatov sizga nimalar dedi.?

Larisa : Hecnima, bo'lmagan gaplar. Volganing narigi tomoni, o'rmon, meni maftun qilib qo'yibdi... Ketaylik shu yerdan, ketaylik !

Karandishev : Harholda xayronman ! U siz bilan nima haqida gaplashishi mumkin?

Larisa : Nima haqda gaplashgani bilan sizni nima ishingiz bor ?

Karandishev : Tag'in Vasya deb atashingiz ortiqcha . Uylanmagan yigitni sensirab so'zlashni nima desa bo'ladi ?

Larisa : Biz bir birimizni yoshlikdan taniymiz . birga o'ynab katta bo'lganmiz yoshlikdagi odat.

Karandishev : U odatlaringizni tashlashingiz kerak. Tentak, so'lagi oqqan bola bilan bunday muomalada bo'lish nima degan gap ! U odatlaringizga bundan keyin chidab bo'lmaydi bilsangiz.

Larisa : Bizni oramizda hech qanday bemazagarchilik bo'lgan emas.

Vojevatov juda ichidan pishgan yigit. Larisaning oshiqlari ichida faqat shu Vojevatov unga befarqroq. Lekin u ham Parijdagi vistavkaga u bilan faqat ko'ngilhushlik qilish uchun borgisi keladi. Ammo Danilichga ham insonning qadridan pulning qadri kuchliroqdir.

Xulosa

Aytish mumkin – ki dramaturg A. N. Ostrovskiy ijodi serqirra, xar qanday janrda ham erkin ijod qila oladigan buyuk dramaturg sifatida rus hamda jahon teatr san'atida o'z o'rniga ega bo'lgan ijodiy yo'llardan biridir. Biz “Sepsiz qiz” pyesasini taxlil qilar eknmiz, faqat uning obrazlari haqida fikr yuritdik. Asarning voqealar tizimi , g'oyasi , mavzusi hamda janr xususiyatlari haqida ham alohida , alohida ilmiy ishlar qilingan va qilinmoqda.

Dunyo teatrlarining barchasi desak mubolag'a bo'lmaydi, ushbu asarga murojat qilganlar. Xozirda ham pyesa o'z dolzarbligini yo'qotmagan, chunki sevgi muhabbat, insoniy sha'n, shu bilan birgalikda egoism, yovuzlik, shafqatsizlik ham bir lahza bo'lsada o'rnini ezgulikk bo'shatib bergani yo'q. chunki bugun ham Larisa singari qanchadan – qancha qalbi, dili pok sodda, ishonuvchan, soddaqalbli qizlar fojeaviy xalok bo'lmoqdalar.

Qanchadan – qancha odamlar o'z manfaati uchun va nafsi, xirsi yo'lida hech narsadan tap tortmay barchani bosib yanchib ketmoqdalar.

Aytmoqchimizki , Aleksandr Nikolayevich Ostrovskiyning “Sepsiz qiz” asarini teatrlarimiz qayta – qayta sahnalashtirishlari , san'atkorlarimiz esa ushbu obrazlarni bor mahoratlari , imkoniyatlari va ichki kechinmalariga suyangan holda ijro qilishlari shart deb o'ylaymiz. Bu yo'lda barcha ijod axliga omad tilayman.

Pyesa asosiy qaxramonlarining qisqacha tavsifi

Xarita Ignatevna Ogudalova :

Oliy maqsadi: Qizini boy kuyovga uzatish

Yetakchi xatti – harakati : Barcha kiborlarni uyiga yeg'ish

Mag'zi: Ayyor xotin

Larisa Dmitrevna Ogudalova :

Oliy maqsadi: Baxtli hayot kechirish

Yetakchi xatti – harakati : Sevsa bo'ladigan qayliq izlash

Mag'zi: Soddadil qiz

Mokiy Parmyonich Knurov :

Oliy maqsadi : Larisani o'ynash qilib olish

Yetakchi xatti – harakati : Larisani va onasini ta'minlab turish

Mag'zi : Xudbi – kalondimog'

Vasiliy Danilich Vojevatov :

Oliy maqsadi : Boyish, boyish

Yetakchi xatti – harakati : Xisob – kitob bilan sarflash

Mag'zi : Sovuqqon, xasis

Sergey Sergeyich Paratov :

Oliy maqsadi : Sepli qiz topib yanada boyish

Yetakchi xatti – harakati : O'zini imkoniyati ko'p odam qilib ko'rsatish

Mag'zi : Olg'ir odam

Yuliy Kapitonich Karandishev :

Oliy maqsadi : Kiborlar safiga kirish

Yetakchi xatti – harakati : Larisaga qanday yo'lbilan bo'lsa ham uylanish

Mag'zi : Xudbin odam

Robinzon :

Oliy maqsadi : Baxtga erishish

Yetakchi xatti – harakati : Masxarabozlik qilib non topish

Mag'zi : Alamzada

Gavrilo :

Oliy maqsadi : Ko'proq mijoz toppish, boyish

Yetakchi xatti – harakati : Odamlarni ko'nglini topish

Mag'zi : Muomalali odam

Ivan :

Oliy maqsadi : O'zini ham qahvaxonasi bo'lishiga erishish

Yetakchi xatti – harakati : Yaxshi xizmat qilish

Mag'zi : Xarakatchan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. A Karimov . “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”
2. K. S. Stanislavskiy “Tanlangan asarlar”
3. A.N. Ostrovskiy. “ Pyesalar ” . O’zbekiston SSR Davlat nashiryoti.

Toshkent 1956

4. K. S. Stanislavskiy. “Sanatdagi hayotim”
5. Polamishev “Sepsiz qiz pyesasi taxlili”
6. Gorchakov “Stanislavskiyning rejissyorlik darslari”
7. T. Tursunov “Sahna va zamon”